

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

XORIJIY TILLAR FAKULTETI

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası

Qo'lyozma huquqida

Turg'unova Dilfuza (408-guruh bitiruvchisi)

**“Rumer Goddenning “Gulbadanbegim” asarida Boburiylar hayoti
va saroy ma'naviy dunyosining aks ettirilishi”**

5141400- “Xorijiy tillar va adabiyoti”

Ingliz tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini
olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi: Sh.O'tanov

Andijon - 2016

**Bitiruv malakaviy ish ingliz tili va adabiyoti kafedrasining 2016-yil
27-may № 9 sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va himoyaga tavsiya
etilgan.**

Fakultet dekani: **f.f.n., dots. M.Abduvaliyev** _____

Kafedra mudiri: **B.Jalilov** _____

Ilmiy rahbar: **o'qituvchi SH. O'tanov** _____

Taqrizchi: **dot. B. Ismoilov** _____

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1 -bob. Rumer Godden yashab o'tgan davrdagi XX asr adabiyoti.....	12
1.1. Rumer Godden hayoti va yozgan asarlarining badiiy jihatlari haqida.....	16
1.2. R.Goddenning tarjimachilik faoliyati va madaniyatlararo munosabatlar rivojidadagi o'rni.....	25
2- bob."Gulbadanbegim" asarining ingliz tiliga tarjimasining tahlili.....	28
2.1.Asar mazmunidagi voqealarning tarixiylik prinsiplari tahlili....	28
2.2.Gulbadanbegim asarida saroy sharoiti va an'analari tasvirlanishi.....	45
3-bob. Asardagi tarixiy shaxslar xarakteri tasviridagi xolislik.....	54
3.1.O'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarda realiyalar va lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishga o'rgatishga doir tavsiyalar va yangi pedogogik texnologiyalar.....	59
Xulosa.....	68
Foydalanilgan adabiyotlar.....	72

Reja:

Kirish

1 -bob. Rumer Godden yashab o'tgan davrdagi XX asr adabiyoti.

1.1. Rumer Godden hayoti va yozgan asarlarining badiiy jihatlari haqida.

1.2. R.Goddenning tarjimachilik faoliyati va madaniyatlararo munosabatlar rivojidadagi o'rni.

2- bob."Gulbadanbegim" asarining ingliz tiliga tarjimasining tahlili.

2.1. Asar mazmunidagi voqealarning tarixiylik prinsiplari tahlili.

2.2. Gulbadanbegim asarida saroy sharoiti va an'analari tasvirlanishi.

3-bob.Asarga tarixiy yondashuv va tarjima muammolari haqida.

3.1. Asardagi tarixiy shaxslar xarakteri tasviridagi xolislik

3.2.O'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarda realiyalar va lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishga o'rgatishga doir tavsiyalar va yangi pedogogik texnologiyalar.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar

«Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada
taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas,
balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk
farzandlari bilan ham jahonni qoyil
qilishi lozim.»

I.A.Karimov

Kirish

O'zbekiston mustaqillik yillarida buyuk o'zgarishlar tomon yuz tutdi. Bu ayniqsa ta'lim tizimida yaqqol ko'rinadi. Chunki, ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yadi. Jahondagi rivojlangan davlatlarning tajribasi ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda o'quvchi yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, yuqori malakali mutaxassislar yetishtirib berish vazifalarini ham hal qilmoqda. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarga bilim berish, ko'nikma va malakalarini hosil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish jahon andozalariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga ulkan xissa qo'shadi.

O'rta asrlarda mamlakatimizda butun dunyoga taniqli olimu - fozillar yashab ijod etganlari barchaga ma'lum. Bugungi kunda ham ana shunday olimlar, mutaxassislar, umuman olganda barkamol rivojlangan shahs, o'z ishining ustasi bo'lgan kasb-hunar egalari, yetuk kadrlar tayyorlash «Ta'lim to'qrisidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilab berilgan. Shu sababli ham avvalo o'tmishda allomalar qoldirgan ijodiy meroslar, mamlakatimiz, shuningdek, jahon ilm - fanining zamonaviy yutuqlaridan bahramand bo'lish davr talabidir. Bunga esa faqatgina chet tillarini mukammal bilish, tilga oid barcha qonun qoidalari boyicha bilim egallash zarur bo'ladi. Shu maqsadda chet tillarini o'rganishning yanada samarali yo'llarini izlash, turli o'qitish uslublarini yaratish olimlarimiz izlanuvchi o'qituvchilarimiz oldida turgan dolzarb vazifadir. [1,120]

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, halq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, halqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga boqliq.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqida fikr yuritganda, biz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslaymiz.

Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shushay orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.

Ohirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun halqimizning

ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi, desak, qech qanday xato bo'lmaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi - 1997 y. 29 avg. da O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida prezident I. A. Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan. Dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qoliplardan to'la halos etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning rivojlangan demokratik davlatlar darajasidagi, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablariga javob beruvchi milliy tizimini yaratishdan iborat.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (1997 y. avgust) qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'ib, milliy tajribaning tahlili va jahon miqyosi ta'lim tizimidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan. Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi va bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan kadrlar tayyorlash milliy modeli bo'lak noyob, takrorlanmas o'ziga xos hususiyatlarga ega. U O'zbekistonning halqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil fikrli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda ezgu insoniy sifatlarga ega kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi I. Karimov tomonidan ijtimoiy ongga kiritilgan, davlatni, jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladigan tamomila yangi tushunchadir. Istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini

o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shushay orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. [2,245]

Prezidentimiz I.A. Karimovning 2012-yil 10-dekabrda 18 75-son qaroriga muvofiq chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

“Hozirgi davrda chet tilini o'rganish va o'qitish katta e'tibor kasb etmoqda. Bu, albatta bejiz emas. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga intilayotgan davlatimiz uchun chet tillarni mukammal bilishning naqadar muhimligi mubolag'a emas, zero xalqimiz o'zining buyuk kelajagi chet ellik sheriklar bilan o'zaro bog'liq ekanini juda yaxshi biladi.... O'zbekiston jamiyatining milliy xususiyatlariga asoslangan va insoniyat qadr qimmatiga mos keluvchi, chet tilini tezroq o'rganish metodini ishlab chiqishimiz kerak” deb hisoblaymiz. Ushbu bitiruv malakaviy ishi “ Rumer Goddenning “Gulbadanbegim” asarida boburiylar hayoti va saroy ma'naviy dunyosining aks ettirilishi” bitiruv malakaviy ishi ustida izlanish olib bordik. Izlanish davomida ham fikrlar berib borildi.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi-Ushbu tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki: Bugungi kunda mamlakatimiz jahon hamjamiyati orasida o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan bir davrda, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodning manaviy kamolotida milliy g'oyalarni shakllantirish g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, faqatgina ma'naviy yetuk, har tomonlama ziyoli va eng asosiysi milliy o'zligini anglab yetgan insongina kamolatga yetgan inson hissoylanadi. Bu borada yoshlarning ma'naviy kamolotga yetishi asosan buyuk ajdodlarimizning ma'naviy me'rosi va ularning Jahon ilm-faniga qo'shgan hissalarini o'rganish orqali amalga oshirishi, katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, yurtimizda yashab o'tgan buyuk mutafakkirlarga nisbatan jahon xalqlarning

ehtiromi va qiziqishlarni o'rganish maqsadida ajdodlarimizga bag'ishlangan adabiyotlarni ilmiy tahlil qilish, kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib biz ham o'zining badiiy –ilmiy, tarixiy va publisistik asarlari bilan zamonaviy ingliz adabiyotida o'ziga hos o'rin egallagan adiblardan biri M.R.Godden Boburiylar tarixiga bag'ishlangan tarixiy asarlarning ilmiy tahlilini olib bordik. Boburiylar sulolasi Hindiston tarixida muhim o'rin egallab, Britaniya mustamlakasi bo'lgan. O'z navbatida bu sulola vakillari o'sha davrda hatto ingliz xalqlari Sharq madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Shu tufayli Sharq xalqlariga inglizlar tomonidan bildirilgan fikrlar dolzarb masala kasb etadi.

Malakaviy ishning maqsadi -Tadqiqotning maqsadi shundaki, biz ushbu ilmiy izlanishimiz bilan Rumer Godden faoliyati haqida hali uning nomini eshitmagan avlodga tanishtirmoqchimiz. Hamda, Rumer Goddenning “Gulbadanbegim” asari bilan, Yevropa xalqlari orasida millatlararo munosabatlar rivojida muhim rol o'ynaganligini yoritib berishdan iborat. Bundan tashqari, o'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarda realiyalar va lingvokulturologik birliklarni tarjima qilishga doir muammolarni o'rganib chiqish .

Malakaviy ishning vazifalari-Yuqorida qo'yilgan maqsad quyidagi vazifalar yechimini taqozo etadi:

1).Rumer Godden ijodiy merosini o'rganish va g'oyaviy estetik jihatlarini aniqlash.

2),”Gulbadanbegim” asarida sulola hayoti haqida yozilgan tasvir va qahramonlar xarakteridagi holisliklarga baho berish.

3).Romanda Boburiylar sulolasi vakillarining yaratilishini tahlil qilish.

4).Tarjimashunoslikda realiyalar va lingvokulturalagik birliklarni o'rganish.

Malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi-Rumer Godden ingliz adabiyotida o'ziga hos madaniy meros qoldirgan. Yozuvchi asarlari nafaqat ingliz adabiyotida, qolaversa jahon adabiyotida ham munosib o'rin egallagan bo'lsada, u haqdagi ilmiy izlanishlar ayrim tadqiqotlarda olib borilgan xolos.. Faqatgina rus olimlari Jukoviskiy va N,Zverovlar o'z tadqiqotlarida qisqacha to'xtalib o'tishgan.

O'zbekistonda esa X.So'piyeva kabi tarjimonlarning ayrim ishlarini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Ammo yozuvchining ijodi asarning linguistic jihatlar va undagi obrazlar tahlili yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan. U haqida adabiy oqimlar haqidagi malumotlarda qisman to'xtalib o'tilgan. Ammo bu fikrlar epizodik xarakterga ega bo'lib, adibaning ijodiy merosini baholash uchun yetarli emas. Bu jihatlar esa tadqiqotning ahamiyatini oshiradi. Qolaversa, ingliz tilida tarix, etnografik asarlarning xususiy jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar ham mavjud emas. Goddenning izlanish obyekti sifatida tanlab olingan asari aynan man shunday asarlar qatoriga kiradi.

Tadqiqot obyekti-sifatida bevosita Rumer Goddenning ilmiy-publisistik usulda yozilgan "Gulbadanbegim" asarini olingan bo'lib, bu asar o'z uslubi va tarixiy faktlarga asoslanganligi bilan nafaqat adabiyotshunoslikda, balki tarix, etnografiya va boshqa sohalarda ham alohida o'rin egallaydi. Qolaversa, R.Godden asarlari o'z badiiy mavzu jihatlariga ko'ra o'ziga xos bo'lib, bugungi kungacha o'z qiymatini yo'qotgan emas. Adibaning ko'plab asarlari qayta nashr bo'layotganini va uning asarlari asosida ko'plab filmlar yaratilib,ularni tomoshshabin va tanqidchilar tomonidan yuqori baholanayotgani ushbu fikrimizni to'g'riligini isbotlab turibdi.

Tadqiqotning predmeti-ingliz adabiyotidagi asarlarda boburiylar sulolasi va saroy ma'naviy dunyosini aks ettirishning o'ziga xos jihatlar hamda ularni yoritib berishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida "Gulbadanbegim" asari olinganligi bois,tadqiqot predmeti sifatida sulola hayotigina emas balki ularning jamiyat hayotida tutgan o'rnini yoritib berilgan.

Tadqiqotning metadologik asosi-O'zbekiston respublikasi prizidenti.I.A.Karimovning falsafiy va ijtimoiy asarlari,O'zbekiston Res.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,tarixiy va ajdodlarimiz haqidagi xujjatlar,boburiylar sulolasi haqida yozilgan asarlar.Xususan,(Bevirij, J.Leyden,Steward,Blochmann,Pirimqul Qodirov, X. So'piyeva) larning olib borgan tadqiqotlari hizmat qiladi.

Malakaviy ishning tahlil metodlari. Ishni yoritishda kompleks xarakterga ega qiyosiy tarixiy, semantik, stilistik, transformatsion, statistik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot metodining asosiy salmog'ini, qiyosiy tarixiy, statistik va tarjima metodlari tashkil etadi.

Malakaviy ishning nazariy ahamiyati- Izlanishlarimizda ingliz adabiyotidagi tarixiy mavzularda ommabop asarlar yozish tamoyillari va ularning badiiy va lisoniy jihatlarini yoritib berilishi, shubhasiz, ishning nazariy ahamiyatini belgilab beradi. Qolaversa, R. Godden ijodining mavzu va g'oyaviy jihatlarini tahlil qilinishi, yozuvchining jahon adabiyotida tutgan o'rnini ko'rsatib berishga yordam beradi.

Malakaviy ishning amaliy ahamiyati sifatida R. Goddenning tarixiy va etnografik asari hisoblangan "Gulbadanbegim" asarida boburiylar sulolasi va saroy ma'naviy dunyosini talqin qilinishi o'ziga hos jihatlarini yoritib berilish o'z aksini topgan. Bu ma'lumotlar bevosita turli xalqlarning ajdodlarimizga bo'lgan munosabatlarini to'g'ri anglashda, milliyligimizni ifodalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy ishning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilandi:

- 1) Rumer Godden hayoti va ijodi haqida o'zbek tilida chuqur tanishtirib o'tildi;
- 2) mazkur asar ingliz va o'zbek tillarida tahlil qilindi;
- 3) Boburiylar tarxida kamdan-kam yodga olingan qahramonlar haqida keng mushohada qilindi;
- 4) Tarjimashunoslikda atoqli otlarni tahlil qilishga doir misollar berildi.

Malakaviy ishning ilmiy ahamiyati- Biz ushbu ilmiy izlanishimiz bilan o'zining badiiy, ilmiy-tarixiy va publisistik asarlari bilan Zamonaviy ingliz adabiyotida o'ziga xos o'rin egallagan adiblardan biri R. Goddenning Boburiylar tarixiga bag'ishlangan tarixiy asarining ilmiy tahlilini olib bordik. Boburiylar sulolasi Hindiston tarixida muhim o'rin egallab, keyinchalik Britaniya mustamlakasi bo'lgan. O'z navbatida bu sulola vakillari o'sha davrda hatto ingliz madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatganlar. Boburiylar misolida ingliz xalqi va u orqali butun jahon xalqlari Sharq madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega

bo'lganlar. Shu tufayli Sharq xalqlariga Inglizlar tomonidan bildirilgan fikrlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy ishning amaliy qiymati-Ushbu malakaviy ishning natijasi «Umumiy tilshunoslik», «Tarjima nazariyasi va amaliyoti», «Nazariy grammatika», «Amaliy grammatika», «Ingliz tili o'qitish metodikasi» kabi fanlarni o'qitishda, tarjimaning amaliy va nazariy masalalarini o'rganishda, shu bilan birga bu mavzuga oid bo'lgan gaplar va matnlarni maktab, kollej, lisey va oliy o'quv yurtlarida o'rganishning lingvodidaktik masalalariga yondashishda o'rganilishi mumkinligi muhim ahamiyat kasb etishi ishning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqot natijalarining **qo'llanilish sohalari** qatorida ingliz adabiyoti o'qitish, tarix va etnografiya, stilistika, adabiyotshunoslik, amaliy va nazariy tarjima kabi fan sohalarida qo'shimcha adabiyot sifatida tavsiya qilamiz.

Malakaviy ishning tuzilishi-Mazkur bitiruv malakaviy ish kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Malakaviy ishning kirish qismida O'zbekistonda ta'lim sohasiga hukumatimizning katta e'tibor bilan qarayotganligi, prezident qarorlari, kadrlar tayyorlashning shu sohada tutgan o'rni haqida, shuningdek ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va unga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan e'tibori xususida so'z yuritdik. Shu bilan birga bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi, ob'ekti, maqsad va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, izlanish metodlari va boshqa xususiyatlari haqida so'z olib borildi.

Malakaviy ishning birinchi bobi. Rumer Godden yashab o'tgan davrdagi adabiyot, yozuvchining hayoti va ijodi yoritilgan.

Malakaviy ishning ikkinchi bobi. "Gulbadanbegim" asarining ingliz tiliga tarjimalari tahlili haqida.

Malakaviy ishning uchinchi bobi. Asarda tarixiy shaxslar xarakteri va tarjimashunoslikka oid tavsiyalar berilgan.

Malakaviy ishning xulosa qismida mazkur ish bo'yicha umumiy xulosalarni berib borishga harakat qildik.

Ishning so'nggida mazkur malakaviy ishning yoritilishida foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar ro'yxati va internet manbalari berildi.

1- Bob. XX asr ingliz adabiyoti

XX asr boshlanishi dunyo xalqlari uchun eng og'ir va murakkab davr bo'lgan. Chunki, bu vaqtda birinchi jahon urushi hamma davlatni tushkin vaziyatga solib qo'ygan edi. Urushdan so'ng xalqlarning tirikchiligi, yashash tarzi juda qiyin kechgan. Bu davrda dunyo iqtisodiy inqirozni boshidan kechirayotgan edi. Shunga qaramay, ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida juda katta o'zgarishlar bo'lgan. Fan sohalaridan tabiiy fanlar, sotsiologiya va psixologiya fanlari adabiy muloqotga omuhtalashib ketgan. Shu bilan birga, yangi asrning kirib kelishi bilan dunyo hayotida, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalar yangicha tus ola boshlagan. Buning shamollari, albatta, Buyuk Britaniya xalqiga yetib borgan. Odamlar endi yangicha fikrlaydigan, yangicha tasavvurlarga ega bo'la boshladi. Bu tasavvurlar yozuvchilik sohasida, adabiyotda yangidan-yangi shoir va yozuvchilarni kashf qilgan. Jumladan: H.F.Wells, Bernard Shaw, John Galsworthy, Arnold Bennet, Joseph Conrad, E.M.Forster, Katherine Mansfield shunday yozuvchilardandir. Ular o'z asarlarida ingliz xalqining xohish-istaklari, his-tuyg'ularini, o'y-fikrlarini ifoda qilgan. Ularning asarlarida yangi asrning yangi yo'nalishlaridan bo'lgan realizm oqimiga duch kelishimiz mumkin. Bulardan qisqa hikoya janrida ijod qilgan yozuvchi Katherine Mansfield ingliz realism ananalarini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Ingliz adabiyotida realizm yozuvchilari avlodi vakillari orasida Richard Aldington, John Boynton Priestley va Archibald Joseph Cronin 1930 va II Jahon urushi oralig'idagi adabiyot olamida paydo bo'lgan. Bu davrda yangidan yangi yosh nihollar ko'kara boshladi. Ulardan eng ko'zga ko'ringan vakili W.H.Audendir. Uning asarlarida o'z xalqida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar yoritib berilgan. Yana shunday yosh shoirlardan Hopkins, Yeats va Eliotlar o'zlarini yangi nazmiy janr kashfiyotchilari deb hisoblaydi. Ayniqsa, ular yangi she'riy janrlar " kinoya", "ko'chim", "o'xshatish" va "oddiy so'zlashuv uslub"laridan unumli foydalanishgan. Ular orasida, William Butler Yeats she'rlari va dramatik asarlari o'z xalqi- Irlandiyaliklar tilidan yozilgan edi. Bulardan, "The Wandering of Oisin" (1891), "The Wind Among the Reeds" (1899), "The Rose"

(1903), “ Green Helmet and Other Poems” (1912) she’rlari juda mahorat bilan o’z davrini aks ettirgan. Hamda, o’sha davrda Irlandiya teatrlarida muhim rol o’ynagan: “ The Countess Cathleen”(1892), “Deirdre” (1907) nomli dramatik asarlari katta olqishlarga sazovor bo’lgan. Bu davrda “moderinizm” oqimi ham paydo bo’lib, bu yo’nalishda bir necha shoir va yozuvchilar ham ijod qilgan. Bulardan shoir T.S.Eliot, hamda, dramatik asarlar yozuvchisi Jaymes Joyselarning nomi alohida tilga olinadi. Moderenizm adabiyoti, o’zining yangi ritmi, erkin qofiyada yozilishi bilan o’tgan asrdagi she’riy janrlardan farq qilgan. Psixalogiyaning rivojlanishi, psixologik realizmning adabiyotga qo’shilishi she’riyat qiyofasini bir oz o’zgartirgan. Endi shoirlar o’z she’rlarida faqat odamlarning xarakterini emas balki, ularning o’y fikrlari va dunyoqarashlarini ham ifoda etadigan bo’lishdi. Bulardan, James Joysening Ingliz adabiyotida tutgan o’rni beqiyosdir. Uning “Chamber Musik” (1907), “Araby”, “Dubliners”(o’n beshta hikoyani o’z ichiga oladi) “Ulysses” asarlari katta shuhrat qozongan. Yana shunday shoirlardan biri Eliot o’z davrida jurnallar nashr qilishda muhim rol o’ynagan. Uning eng ko’zga ko’ringan asarlaridan, “The Hollow Men”(1925), “Ash Wednesday” va “Four Quartets” (1930) asarlari odamzodning aqliy his-tuyg’ularini ifoda etgan.

XX asr ingliz adabiyotida paydo bo’lgan yosh yozuvchilardan Graham Greene, Charles Persy Snow, Norman Lewis, Sid Chaplin va James Aldridge o’z asarlarida optimistik qarashlarni namoyish qilishgan. Ular davlat boshqaruvidagi imperiya tizimi va kaloniyachilikka qarshi kurashgan yozuvchilar bo’lishgan. Elliginchi yillarda ular o’zlarining ikkinchi nomlari ya’ni “ Jahldor yoshlar” nomi bilan adabiyot olamida paydo bo’lishgan. Urushdan keyingi o’zgarishlar, jamiyatda demokratik rivojlanishning kuchayishiga olib kelgan. Endi yoshlar universitetlarda oliy ta’lim olish imkoniga ega bo’lishgan. Lekin, universitetni tamomlagan bu yoshlar o’z sohalarida ishlay olmay, ishsizlikdan aziyat chekishgan. So’ng, o’zlarida nafrat hissini tuygan “Jahldor yoshlar”-jamiyatning har bir boshqaruvidan g’azablanganlar. Bular orasida mashxur

tanqidiy yozuvchilar: John Wain, Kingsley Amis, John Brain, Colin Wilson va dramaturg John Osborne o'z asarlarida jamiyat tizimini tanqid qilishgan.

Zamonaviy ingliz adabiyoti 60-yillarda boshlangan va Britaniya madaniy hayotida “tanqidiy adabiyot” deb nomlangan yangi oqim yuzaga kelgan. Ayniqsa, romanchilikda tanqidiy realizm paydo bo'lgan. Shunday janrda ijod qilgan mashxur yozuvchilar: Sid Chaplin (1916-1986), “Sardinadagi so'ngi kun” (The Last Day of the Sardine 1961s), va Allan Sillitoening “Eshik kaliti” (Key to the door 1963) asarlari yuksak bahoga ega bo'lgan. Ingliz adabiyotida 1950-1969-yillar oralig'ida “dramaturgiya” janri ham rivojlana boshlagan. Ko'p sonli dramaturglar kuchli saviyada sahna asarlarini yaratishgan va bu asarlar, mahoratli aktyorlar tomonidan ijro etilgan. Bunday dramaturglardan John Osborne, John Arden, Harold Pinter, Tom Stoppard va Edward Bondlarning asarlari yuksak bahoga ega bo'lgan. Bu yozuvchilarning asarlaridagi reallik o'sha davrdagi she'riyat va badiiy asarlar uslubini o'zgartirishga sabab bo'lgan. Ular o'z asarlarida shaxsning ichki dunyosidagi o'y-fikrlari, holati va his-tuyg'ularini ifodalash uslubini kashf qilishgan. Bular orasida mashxur yozuvchi Ted Hughes juda oddiy uslubda, lekin, kuchli tassurot uyg'atuvchi asarlar yaratgan. Uning asarlarida tabiat jonlanadi va tilga kiradi. Uning ko'plab asarlarida metafara va mifik usullarni uchratishimiz mumkin.

1970-1980-yillar davomida yangidan yangi iqtidorli yozuvchilar paydo bo'la boshlagan. Bulardan: Greene, Murdoch va Amis, Wain va boshqa yozuvchilar juda yuksak darajadagi asarlar yaratishgan. Huddi shu davrda Margaret Drabble, Susan Hill va boshqalar adabiyot olamiga ilk qadamlarini qo'yishgan.

Zamonaviy yozuvchilar o'z asarlarida turli hil janr va yo'nalishlarni kashf qilishgan. Shunday yozuvchilardan John Fowles o'z romanlarida “sarguzasht” va “sehircarlik” uslubida yozishni kashf qilgan. Bunga misol qilib: “Fransuz Letinant Ayol” (The French Lieutenant's Woman 1969) asarini olishimiz mumkin. Margaret Drabble asarlarida esa Londondagi murakkab hayot va ta'limni egallagan o'rta sinf vakillarini tasvirlangan. Masalan: “Go'zal Yillar” (The Garrick Years 1964), “Yerning O'rtasi” (The Middle Ground 1980) va boshqa

asarlari shunday uslubda yozilgan. Iris Murdochning romanlarida esa bilimga ega bo'lgan yuqori sinf vakillarining psixologik qarashlari ifoda qilingan. Ingliz adabiyotida nazm bilan qalam tebratgan uch vakil: Ted Hughes, Philip Larkin va Donald Daviening she'rlari o'z ahamiyatini haligacha yo'qotgani yo'q. Ted Hughes o'zining "Qruv" (Crow 1970-1971) she'ri bilan shuxrat qozongan. Philip Larkinning " Baland Derazalar" (High Windows) nomli she'riy to'plami 1974-yilda nashr etilgan. Davining ko'plab she'rlari " Poyezd to'xtaganda" (In the stopping train 1977) deb nomlanga she'riy to'plamidan joy olgan. O'sha davr ingliz adabiyotida "dramaturgiya" janri ham rivoj topgan. 20 Asrning oxirlarida Harold Pinter turli sahna asarlarini yozgan. Uning asarlaridan " Yersiz Odam" (No man's Land 1975) va "Betroyal" (Betrayal 1978) dramalari yuksak darajada bahoga ega bo'lgan. Ingliz dramaturgi Tom Stoppard o'zining og'zaki ijodi, tushinib bo'lmaydigan jumboqlari va donishmandlik mavzularidagi sahna asarlari bilan dong qozongan. Uning " Jumpers" (1972) va "Travesties" (1974) asarlari Zamonaviy ingliz dramaturgiya tarixida yuksak nom qozongan. Yana bir dramaturg Simon Gray o'zining "Butley" (1971) va "Otherwise Engaged" (1975) asarlarida "portret" janrini qo'llagan. Peter Shaffer esa bastakor Wolfgang Amadeus Mozart haqida murakkab drama "Amadeus" (1979) asarini yaratgan. Adiba Carly Churchill o'zining " To'qqiz Bulut" (Cloud Nine 1981) komediyasi va ayollarga hos qarashlar ifodalangan " Top Girls" (1982) sahna asarlarida o'tgan va hozirgi davrlar o'z ichiga olgan.

Shunday qilib, Ingliz shoir, yozuvchi va dramaturglari o'z asarlarida yangidan-yangi janrlarni kashf qilishda davom etmoqdalar. Hozirda ham bu kashfiyotlar jahon adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lib kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Mana shu davrlarning har birida teng ijod qilgan ingliz adibasi Margaret Rumer Godden (1908-1997) ham o'z asarlari bilan yuksak bahoga ega bo'lgan. Uning asarlari o'z qiymatini hali ham yo'qotganicha yo'q. Bu haqida keyingi boblarda kengroq yoritib o'tilgan.

1.1. Margaret Rumer Godden hayoti va ijodi

Margaret Rumer Godden-1908-yil,10-dekabrda Angliyaning Susseks shahri, Estborneda (“eng qoʻrqinchli joy”) dunyoga kelgan. Rumer Goddenning nomi shoira, journalist va tarixiy asarlar muallifi sifatida Buyuk Britaniya va Hindiston adabiy jamoatchiligi orasida yaxshi maʼlum.

Adiba Hind kaloniyasi Narayanganj (hozirgi Bengaldesh) shaxrida uch singlisi bilan voyaga yetgan. Otasi Artur Leyx Godden yigirmanchi asr boshida Kalkuttada joylashgan Bengal daryo oqimidagi ” Brahmaputra Navigatorlik kompaniya”sida paraxod boshqaruvchisi edi. Boʻlgʻusi adibaning bolalik chogʻlari,aniqrogʻi,oʻn ikki yillik yoshlik davri Hindistonda kechadi.Margaret bu qadimiy, sirli va maftunkor oʻlkaga chin dildan mehr qoʻyadi.

Ota-onasi qizlarni Angliyadagi zodagonlar maktabida taʼlim olish uchun yuborishgan,chunki, oʻz millati, ingliz urf-odatlarini oʻrgatish vaqti kelgan edi. Lekin,birinchi Jahon urushi boshlangandan soʻng ularni Narayanganjga qaytib olib kelishgan. Rumer Godden oʻz esdaliklarida,singlisi Jonga juda hasad qilganini u ham iqtidorli, shu bilan birga, chiroyli boʻlganini taʼkidlagan.Lekin, Rumer Godden Wellington Gersogiga oʻxshagan kalandimoq qiz boʻlganini yozgan. ”U har tomonlama toʻkis qiz edi”-deydi Rumer Godden umrining soʻngi paytlarida “va hech kim meni kelajakda zoʻr yozuvchi boʻlishim mumkinligi haqida fikr bildirmagan -“Mening yozganlarim Jonning yozganlaridan ancha ustunroq edi”-deydi yozuvchi. Rumer Godden 5 yoshidan yozuvchilik yoʻliga kira boshlagan. Ikki yil oʻtib birinchi tarjimai xolini yozgan. Uning ichki dunyosi hammaga maʼlum emas,boshqacha edi. U bolaligidan oʻz mustaqil fikriga ega lekin oʻzboshimcha boʻlgan. Goddenslar uyida Musulmonlar xizmat qilgan. Ularning koʻp xizmatkorlari Madrasdan kelgan Xristianlar va Nepaldan kelgan Buddistlar edi.Bogʻbonlar va supiruvchilar Braxmanlardan boʻlgan. Ularni Godden qoʻl tekkizib boʻlmaydigonlar deb hissoblar edi. Bu fikrlari uchun uning otasi Braxman bogʻbondan kechirim soʻrashga va xoki–poyini ushlab taʼzim qilishga majburlagan va qaytib unday demaslikka qasam ichgan. Lekin,keyinroq 1924-yil ” Hindiston dengizi yoʻliga sayohat” kitobini oʻqigandan soʻng,Godden ota-onasiga oʻz

xulqini o'zgartirishi haqida vada bergan va Hind xizmatkorlari haqidagi bo'lib o'tgan voqealarni hammasini unutgan. Godden 1920-yilda opalari bilan Birlashgan Qirollikda ta'limni davom ettirish uchun, qizlar maktabiga qaytib bordi. Ullarning chetdan kelganligi, Yevroosiyo talaffuzida qo'shiq kuylashlari o'qituvchilar va tengdosh o'quvchilar tomonidan masxara qilingan. Rumer va Jon ko'p yillar davomida besh marta maktab o'zgartirishgan. Nihoyat, "Mariya Uyi" maktabida qo'nim topishgan. Godden "Mariya Uyi" qizlar maktabida raqs o'qituvchisi bo'lish maqsadida tahsil oldi. 1920-yil Goddenlar oilasi Angliyaga qaytib ketgan bo'lsada, Margaret Hindistonga tez-tez kelib turadi. U 1929-yil Kalkuttada baynalmilal raqs maktabini tashkil qilib, o'z faoliyatini boshlaydi va shu davrdan e'tiboran dastlabki asarlarini yaratishga kirishadi va ingliz va hind bolalari uchun raqs maktabini ochdi. Godden singlisi Nansu yordamida ushbu san'at dargohida yigirma yildan ko'proq ishlaydi. Maktab 1932-yil o'z faoliyatini tugatgan. Shu payt u turmushga chiqqan edi. 1934-yil birinchi farzandi dunyoga kelgan, lekin oradan to'rt kun o'tib vafot etgan. Keyingi yil birinchi romani "Xitoycha jumboq" nashr etilgan. Bu vaqt davomida 1939-yil "Qora Nargizlar" deb nomlangan romani nashr etilgan va kitob do'konlarida juda xaridorgir bo'lgan. Baxtsiz turmushidan so'ng (1934) 8 yil o'tib, 1942-yil ikki qizi bilan (uning eri Laurens Foster armiyaga qo'shilgan edi) Kashmirga ko'chdi. Uning qiyinchilik kunlari boshlandi. U yerdagi bir suv ustida suzib yuradigan uyda ijaraga yashadi va fermerlik faoliyatini boshladi, pol yuvuchilik qildi. So'ngra, baland tog' ustida elektirsiz va suvsiz kattejga ko'chgan ("u yer juda chiroyli joy edi")-deydi kundaliklaridan birida. U uyni Godden "Kabutar Uy" deb atagan. U yerda yetti yoshlik qizi Jeyn va besh yoshlik qizi Paula hamda, yosh jiyani Simon bilan yashagan. Jeynning eslashicha, uning onasi asosiy sharoitlarni yaratib olgan edi. Godden qog'oz o'rniga oyna siniqlaridan foydalanar edi. Tishlarini esa majnuntol shohida yuvishar edi. Lekin, o'sha uy Rumerga halokat nishonasiga yo'liqishiga sabab bo'lgan. Rumer-"Men hech qachon u yerni tashlab ketmagan bo'lar edim" deya Jonga xat yozgan edi. "Ba'zan u yerdan qo'r qar edim va bu asosli edi" deya yozgan. Jeynning eslashicha bir kuni biz tushlik qilayotgan edik, nimadir ovqatimiz ichida borligini sezib qoldim. Qarasam u

sachradi. Ovqatimiz ichida qum va zaharli dori bor edi. Biz tezda sendivichlarga paxta tolasini o'rab yeb oldik. Bu esa ichak a'zolarimizni yemirishdan himoya qilgan. Godden bolalarini boqish uchun erta tongda, soat 4 da turardi va asarlar yozardi,kechki soat 11da bolalari uxlab qolardi va yana yozishmalarini davom ettirar edi. Sirli baxtsiz hodisa,ya'ni,u tajovuz qilingandan so'ng tezda eng kerakli narsalarni olib "Kabutar Uy"dan ketishgan. 1944-yil Kalkuttaga qaytishgan.Jeyn "Magnoneti" nomli qo'g'irchog'ini olib ketgan. "Uni Kalkutta bozoridan sotib olganman va haligacha saqlab kelaman"-degan edi. Nihoyat, Ravalandiga yetib kelishgan.Jeyn u yerda birinchi bo'lib suv jo'mragi va bir qizil pufakka ko'zim tushgan edi deya eslardi." Baliq qirolining yonishi" nomli romanini yozishga kirishdi. Bu vaqtda u Kashmirda edi.1945-yil Birlashgan Qirollikka roman uchun materiallar to'plash maqsadida qaytib bordi. Tez-tez uydan uyga ko'chib yurgan. Ko'proq London va Susseksda yashagan. 1948-yilda turmush o'rtog'i bilan ajrashgan. 1949-yil 26-noyabrda shahar xizmatchisi Jeymes Haynes Diksonga turmushga chiqqan."Eng yaxshi va xunuk erkak"-Godden uni shunday tasvirlagan edi. 1949-yili Angliyaga qaytib borib bilimi,iste'dodi va kuch g'ayratini badiiy ijodga bag'ishlaydi. 1950-yil boshlarida Godden Katolik cherkoviga qiziqqa boshladi. Shunga qaramay 1968-yilgacha rasmiy ravishda qabul qilmadi.Shu davrdagi so'ngi bir necha romanlari Katolik ruxoniylari va rohiblariga xayrihohlik mavzusini o'z ichiga olgan. Bu davrda yozilgan "Qora Nargizlar" romanidan tashqari yana ikkita kitobi diniy tashkilot ayollari mavzusiga oid edi."Besh qayg'u va O'n shodlik" hamda, "Brida uyida" nomli asarlarida,insoniyatning aqliy va ruhiy tasavvurga asoslangan hodisalar o'rtasidagi tenglikni tasvirlagan. Godden romanlarining ko'p qismi Hindistonda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga olgan. Ular ko'proq xis-tuyg'u, sezgilar,hid bilish,gullar, shovqin,yorig'lik,jo'shqinlik haqidagi mavzulardan iborat. Uning bolalarga yozgan kitoblari,ayniqsa qo'g'irchoqlar haqidagi bir necha hikoyalari,bolalikning tushunib bo'lmas chigalliklari,kuchli hoxish istaklar va ko'ngli istaganini qilishga intilish haqidagi tasavvurlarni ifodalaydi.Uning mavzulari qahramoni ko'proq g'ayrita'biy yoshlar,noodatiy qobilyatga ega past tabaqadagi odamlar,yoki o'rta sinf

vakillari, kuchli ta'limni egallagan boylar va yuqori sinf vakillari edi. Ularning xarakteri esa o'zaro muammolar, qahr-g'azab, achchiqlanish bilan yoritilgan. 1972-yil "Didakko" nomli romani davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Yosh o'smir Jipsi haqidagi romani BBC kanali orqali telivizirda namoyish qilingan. "Didakko" da "xushfe'l bolalarning o'smirlik davriga o'tib urushqoq bo'lib qolishlari haqida" tasvirlangan deydi-Kingesley Amis. Kitobda bolalarning bir necha xarakterlari to'la yoritib berilmagan. Siz kitobning boshlanishi va oxirini yaxshi yorita olmagan. Keyin juda ko'p tasvirlar yo'q. Ularni o'rtacha holda saqlang va so'zlarni ishlatishda juda extiyot bo'ling degan edi. So'ng men badiiy tasvirlardan ozroq lekin, mos keladiganidan foydalandim va bu juda muvofaqiyatli chiqdi"- degan. 1968-yil Sharqiy Susseksdagi Ray shaxriga ko'chib borgan va u yerdagi bir uyni ijaraga olgan. Rim Katolig cherkoviga a'zo bo'lgan."Men hamma narsani aniq va ravshanlashtirishni hojladim. U yangi dinni qabul qilganini eslatib o'tdi. Siz har doim kechirimlisiz lekin, din qoidalarini yaxshi biling-deydi." Breda uyida" asarini yozishni boshlaganda (1969) U duo qiladigan rohiba hayotini o'rgandi. Uch yil ingliz abbatligida yashagan. Bir voqeani achchiqlik bilan yodga olgan. Bir Amerikalik muhlisi undan dastxat qo'yib berishini so'ragan. So'ngra, mamnunlik bilan javob yozgan. "Dastxatingiz uchun rahmat. Biz ko'plab asarlaringizni o'qib tahlil qilib chiqdik. Siz dunyodagi eng yomon, ochko'z, xasis va hudbin odamsiz"- degan edi. Rumer Godden umri davomida ko'p pul yig'gan va uni qanday sarflashni juda yaxshi bilgan. U 16 yoshga kirayotganda, tug'ilgan kunida bir ajoyib kuchukcha sotib olgan va 35 yil davomida uni avlodini saqlab, ko'paytirib kelgan. Britaniyaga qaytib, Ray shaxridagi Lamb uyida yashashgan. U yer Genry Jeymisning birinchi uyi edi va ular Haygeytdagi Old Halda yashashgan. U yerda buvisi Margaret Ruzerfort yuqori qavatda istiqomat qilgan. U uyda hikoyanavis Fransis Bakon o'z davrida yashab, vafot etgan edi. Yozuvchi Ray shaxrida 1975-yilga qadar ya'ni eri vafot etgunga qadar yashagan." U menga hamma narsa qila olardi. Men uni avvalgi erimdan ko'ra ko'proq sevganman"-deya yozgan edi. Uning vafotidan keyin men o'zimni qo'lga ololmaganman, hech narsa menga yupanch bo'la olmagan"-deb yodga olgan edi adiba o'z kundaliklarida. Uning shu

davrgacha bo'lgan kitoblari o'z olqishlariga sazovor bo'lgan. U temir iroda bilan o'z yozishmalarini davom ettirishga kirishgan. Agar biror asarini tugatsa 3 kun davomida “g'alaba” kabi o'qib chiqqan.”Asar yozish juda xordan toydiradi. Lekin, men ularni ovqat va ichimlik o'rnida ko'rdim.”-deya ta'kidlagan edi. Hammasi bo'lib 24 romani nashrdan chiqqan. Oxirgi asari Shiva Hudosi haqidagi “Kromartiy” romani edi. Hind hokimiyati oxirgi yillarda o'z boshqaruvini juda yaxshi yo'sinda olib borgan. Bundan tashqari, ko'plab romanlari,jumladan,”Baliqchi qirolning yonishi”(Kingfishers Catch Fire 1953),”Chumchuqlar mojarosi”(1955),”Hind quyoshi ostidagi ikki kun”(Two Under the Indian Sun 1966),”Shiva Kabutarlari” (Shiva's Pigeons 1972) 1995-yil televizorda namoyish qilingan , “Qora ot”(The Dark Hourse1981),”Karamandil dengizining o'zgarishi”(Coromandel Sea Chang)-o'z muxlislariga ega bo'lgan. 1978-yil Dumfrisshirdagi Monavi shaxriga ko'chib borgan. U davrda yozuvchi 70 yoshda bo'lgan va qizi Jeyn bilan yaqin joyda yashagan. 1993- yil Britaniya Imperiyasida xizmat ko'rsatgan Ofisser unvonini olgan. 1994-yil BBC kanali uchun olingan “Bookmark”nomli yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi filmni olish uchun Kashmirga borgan.U yerdan qaytayotib Hindistonga yana bir bor tashrif buyurgan. Yozuvchi Rumer Godden 1998-yil 8-noyabrda 90 yoshida miyaga qon quyulishi sababli vafot etgan. Marhumani Ray shaxridagi ikkinchi eri yoniga dafn etilgan.Rumer Godden romanlari ko'plab salmoqni tashkil etadi. U dunyoni bolalarning jo'shqinligi,va noodatiy realism bilan ko'ra olgan. U Hindistonning Raj shaxrida o'tgan so'ngi kunlarini kuchli his-tuyg'u va badiiy tasvirlar bilan zo'r ifodalagan.U so'ngi paytlarda diniy va hayoliy hayotga juda qiziqqan. ”Qora Nargizlar”(Black Narcissus 1938) Hind yerlaridagi dinga bo'ysunmayotganlar va missioner rohibalar orasidagi urush to'g'risida edi. Missionerlarning maqsadi Buddaviylik dinini butun mintaqalararo g'alaba qozonishi va har bir boshqa din vakillarini yemirish.”buddaviylik”ni hukumronlik qilishi to'g'risida yozilgan. ”Olxo'rili Yoz”(1958) Undagi voqealar Fransiyada bo'lib o'tgan. Uning qahramonlari to'rtta yosh bolalar edi.Ularning onalari kasal bo'lib qoldi. Turmush ularni esa qo'pollik bilan katta hayotga itarib tashlaydi. Mehmonxona xo'jayini

boy ingliz 16 yoshli va 13 yoshli singillarini sevib qolishi va ularni boshini aylantirib jazzman qilishi haqida. Qizlar shu tariqa ayollik dunyosida chayqalishga ham to'g'ri keldi. Ularning ukasi sakkiz yoshda edi. U o'z vaqtini ajoyib tasavvurlar va o'zining qo'g'irchoqlariga ko'ylak kiydirish bilan o'tkazgan. Bu ikkala kitoblar ham muvofaqqiyatli filmlarga aylangan. Lekin, Rumer Godden 1947-yil "Qora Nargizlar" romani asosida Mihail Povel va Emirik Presburgers tomonidan ishlangan film variantini uncha xushlamagan. U yana Deborah Kerr va David Farrar suratga olgan filmining variantini ham ustidan shikoyat qilgan. Hamma voqealar mening tasavvurimdan boshqacha berilgan. Ayniqsa, Surrey bog'i va Himalaydagi otliqlarning tayoq bilan jangi boshqacha tusda tasvirlangan. "Issiqxonadagi yoz"(The Greengage Summer 1961) Kennez Mor va yosh Susannah York tomonidan ishlangan. Bu film ham o'z davrida muhlislarga uncha zavq bag'ishlamaydigan darajada yaratilgan. Rumer Goddenning eng zo'r filmi bu "Daryo"(The River) nomli film edi. Bu asar 1946-yil nashrdan chiqqan va Jen Renior tomonidan suratga olingan. Bu kinodagi voqealar Hindistonda bo'lib o'tgan. Bu asar bolalikdan o'smirlikka o'tish davri haqida. Bu kitob uning boshqa romanlaridan farqli o'raloq, uning tarjimai xoli ham bo'lishi mumkin. Lekin, yoshlik davrlarini to'liq yoritib bera olmagan. Uning ko'pchilik do'stlari, kitobning davomini yozishga ham taklif qilishgan.

Rumer Godden Hans Kristian Andersinning ikki jildlik tarjimai xolini tarjima qilgan va nashr ettirgan. Adibaning "Raqs uchun hayot bor, yig'lash uchun hayot yo'q" (A Time to Dance No time to weep 1987), "To'rt xonalik uy" (A House with Four Rooms 1949) asari 12 tilga tarjima qilingan.

U bolalar uchun ham ko'plab asarlar yozgan "Qo'g'irchoq uy" (The Doll's House 1947), "Sichqon ayol" (The Mousewife 1951), "Gulxonim va Baxtxonim" (Miss Happiness and Miss Flower 1961) - asarlari shular sirasidandir.

Rumer Godden haqida bir necha jurnallar va qo'llanmalarda maqolalar berilgan. Jumladan, "Rumer Godden: ta'sirli lekin qadrlanmagan adiba" nomli maqolada Jeyms Shillin: "Rumer Godden asarlari ta'sirli bo'lishiga qaramay, shu paytgacha qadrlanmadi" - deydi. Uning qizi Jeynga "Baliqchi qirol yonishi" asarini

topib olganligi haqidagi bir voqeani aytib beradi. Men 70 yoshni qoralayotgan paytlarim, shaxarchamdagi bir mahalliy davlat kutubxonasini topib oldim. U hech kim tanimaydigan, ko'rimsizgina g'ishtli bir bino edi. Hayolimda vaqt mashinasi meni yetaklaganga o'xshardi. Men ichkariga kirdim va pol ustida yotgan kitoblarga ko'zim tushdi. Eski kitoblar hidi shunday dimog'imga urilar edi. Men avvallari hech qachon u joyga boraman deb o'ylamagandim. U yerdagi ishlatilmayotgan kitob jovonlarini titkilay boshladim. Men Rumer Goddeni kashf qildim. Men allaqachon Rumer Godden ismini eshitgandim. Men adibaning "Baliqchi qirolning yonishi" kitobining qog'oz parchalarini yig'ib oldim va ularni tikib qo'ydim. Uning yana bolalarga atalgan taniqli hikoyasi "Qo'g'irchoq uyi" (The Doll's House 1947) deb nomlangan. Bunday daxshatli hikoyani hattoki mening bolalikdagi sevimli yozuvchim Beatrix Potter ham hech qachon yozmagan edi. Shuning uchun men uni kitoblarini juda extiyotkorlik bilan saqlashim kerak deb o'yladim va men haq edim. Kolettiga o'xshab uning asarlarini bir vaqtning o'zida o'qishni boshladim. Goddenning uydirmalari shubxali fikrlar, e'tiborli ko'zlar, ruhiyatga ta'sir etadigan so'zlar va odamzodning umri davomida xatoga yo'l qo'yishi haqida edi.

Rumer Goddenning kichik qizi Jeyn Murray Flutter bilan London mehmonxonasidagi uchrashuvda, mening o'smirlik davrimda ko'rish orzuyim bo'lgan "Baliqchi qirolning yonishi" asarini berdim. Men ushbu kitobni ko'z qorachig'idek asrab yurar edim. Asar muqovasiz edi. Asar qo'lyozmada yozilgan va kitob usti karton qog'oz bilan qoplangan edi. Yozuv kichkina, to'g'ri va sal orqaga yotqizib, tikka holda yozilgan edi. Yozuvlarga tushunish juda qiyin holda edi. Yozuvlar ustidan tikka chiziqlar o'tgan, xatolar esa qog'oz parchalaridan yopishtirib to'g'rilab chiqilgan. Sariq chiziqdagi yozuvlar notiqlik bilan yozilgan edi va bu haqiqiy yozuvchi yaratgan asl nus'ha edi. Rumer-qizi Jeynning aytishicha - kompyuter yozuvini ma'qullamagan. Uning aytishicha, kompyuter yozuvi odamlardan ko'plab vaqt va mehnat sarflashga majbur qiladi. U siyoh ruchka ishlatar va bu jarayon albatta, uning miyyasiga kelgan fikrlarni to'g'ri qog'ozga tushirishga yordam berar edi. Rumer Godden "Mening uchun hayotning

o'zi hikoya" maqolasidan 2008-yil 5-yanvar. U haqida yana bir "Tushlik bazmdagi maymunlar" maqola 1998-yil 30-may nashr etilgan.Ushbu maqolada shunday yozilgan edi."Rumer Godden 1998-yil 90 yoshida vafot etgan.U haqidagi bir haqiqat shunda ediki-uning adabiy go'zallikni to'g'ri shakllantira olgani edi. So'ngi asarlari opera va raqs san'atini o'z ichiga olgan "Qora Nargizlar" asari Amerikalik bastakor Mihayl Royatn tomonidan musiqalashtirgan.Rumerning bu asari uning kichik singlisi Jonga atalgan bo'lishi mumkin degan tahminlar ham bor. Jon ham yozuvchi bo'lgan va 15 sarlavha ostida asar jamlagan. Rumer asarlari Virago tomonidan qayta nashr etilgan. Uning ilk nashr etilgan asarlari orasidan "Qora Nargizlar","Baliqchi qirolning yonishi",hamda,Nikolids bilan nonushta asarlari yozuvchi Rozi Tomas tomonidan muhlislar etiboriga havola qilingan.Har uchchala asardagi voqealar Hindiston diyorida bo'lib o'tgan. Rumer to'qimalari o'zining hayotiy tajribalaridan kelib chiqib,boshidan o'tgan voqealarni qog'ozga tushirgan."Nikolids bilan nonushta" asarida boy oilaning erka farzandi halokatga uchrab,fojeali o'lim topishi haqida yozilgan va bu voqealar uning bolaligidagi noxush esdaliklar edi."Baliqchi qirolning yonishi" asarida esa uzoq Kashmir diyorida yashovchi bir ingliz ayolining ikki kichik qizi bilan fitnaga yo'liqishi haqida edi.Ularning ho'jayini ovqatlariga zahar qo'shib qo'yishi va ularning hayotlari zo'rg'a saqlanib qolingani haqida edi.Rumer asarlaridagi hamma uydirmalar o'zining hayotini tasvirlagan.Oilalarida shunday gap bor edi:"bu Rumer hayotimi yoki boshqa haqiqiy hikoyami?"Godden asarlaridagi bolalar,jumladan "Baliqchi qirol yonishi asarida Teresa,"Nikolids bilan nonushta" asarida – Emiliy tashvishli,beqaror va g'amgin edi.Ular g'azablanish bilan doim onalari yozganlarini ma'nosiz va g'amgin deya ayblashar edi.

Rumer –Jeynning aytishicha bolalari katta bo'lganda ajoyib sharoit yaratib berishga harakat qilgan. Bolalarga choy bazmi uyishtirib qo'g'irchoq teatri qo'yib berar,ularga kichkina sendivichlar va naqshlar chizilgan meduzalar berar edi .Godden 70 dan ortiq kitoblar yozgan g'ayrioddiy yozuvchi edi.Ular orasidan 25tasi romanlar,18tasi ilmiy ommabop asarlar, 23tasi bolalarga atalgan hikoyalardan tashkil topgan. U eng zo'r asarlarida aql va hissiyot to'qnash

kelishini hayotiy va lirik kechinmalar bilan tasvirlab bera olgan. Jumladan "Qora Nargizlar asaridagi oqko'ngil gilolar va sudralib yuruvchilarning quruqlikdagi hayoti ifoda etilganligi ham shularning bir isboti edi. 1972-yil mana shu mehnatlari evaziga "Didakko" (Didakkoi) asari uchun "Vaytbred" mukofotiga sazovor bo'lgan. Shu kunga qadar hech qachon bunday katta mukofot olmagan edi." Nihoyat, uni tan olishdi" deydi Jeyn. Rumer doim "tanqidchilar meni yozuvchi emas, hikoya aytuvchi qilib tarbiyalashdi" der edi. Uning shogirdlari so'ngi asarlarini 3-Radio orqali Tungi eshittirishda berib borishgan. Uni "yaxshi va yomon yozuvchi" yoki "to'quvchi ayol" deya tasvirlashgan. Yana bir yozuvchi Flip Hinsher u haqida boshqacha fikr bildirgan. "U eng maftunkor va eng zo'r yozuvchilardan biridir" deya takidlagan. Virago uning yangi nashrlarini o'qib shunday qarorga keldim. U eng sofdil, ma'suma va zukko, kezi kelganda, Kolit, Iren, Nemirovskiy kabi qahramon bolalarning his-tuyg'ulari va aqlsizliklarini shavqatsizlarcha ifoda etgan zamondoshlari qatoridan munosib joy egallagan yozuvchidir. Lekin meni so'zlarimdan shunday fikrga bormay, yaxshisi asarlarini o'zingiz o'qib ko'ring deya Jeyn o'z suhbatiga yakun yasadi.

M.R. Godden qalamiga mansub "Xitoy jumbog'i", "Honim va Hukumdor", "Qora Nargiz", "Daryo", "Hind quyoshi ostidagi ikki kishi", "Shiva Kabutarlari", "Qora tulpor" kabi bir qator asarlari katta shuxrat qozongan, ularning aksariyati asosida badiiy filmlar suratga olingan.

1.2-Bob R.Godenning tarjimachilik faoliyati va madaniyatlararo munosabatlar rivojidadagi o'rnini.

Muallif Hindistonda yarim asrdan ziyod vaqt hukm surgan boburiylar saltanatining yorqin nomoyandaligidan biri bo'lgan, noyob iste'dod va aql-zakovati sohibasi Gulbadan begim shaxsiyatini o'sha davrning murakkab va dolg'ali tarixiy voqealari, toj-u taxt kurashlari, inson ruhining poyonsiz g'alayonlari bilan uzviy bog'liq holda, o'ziga hos talqin va mahorat bilan aks ettiradi.

Mazmun mohiyatiga ko'ra bu tarixiy-etnografik asar bo'lib, go'yoki Gulbadan begim o'z kundaligi shaklida yozilgan. Asarda Gulbadan begimning tug'ilganidan hayotining so'ngi damlarigacha bo'lgan davr oralig'idagi ko'rgan – kechirgan voqealari va ichki kechinmalari atroflicha yoritib berilgan. Tasvirlangan voqealar va tarixiy shaxslar yuzasidan bildirilgan fikrlar bevosita Gulbadan begimning “Humoyunnoma” (Gulbadan begim. “The history of Humoyun or Humoyunnoma” trans. By A.S.Beveridge, Royal Asian Society, London, 1902), Boburning “Boburnoma” (Babur. Memoirs. 2nd time. Trans, by J.Leyden and W. Erskine, 1826. revised addition, Oxford 1905 va Abu Fazlning “Akbarnama” (Abul Fazl, “The Akbar Nama”, 3 volume trans.by H.Beveridge, Asiatic Society of Bengal, Calcutta, 1907-39) kabi tarixiy asarlari asosida berilganligi asarning manba tarixiy sifatida o'z ahamiyatini yanada oshiradi. Yozuvchi ijodida nafaqat badiiy asarlar balki tarixiy-etnografik va ilmiy-ommabop janrdagi asarlar ham ko'p uchraydi. Bu janr uning hayoti davomida to'plagan ma'lumotlari ifodasi bo'lib, uning ijodida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning to'plagan materiallari va hayotiy tajribasi bu asarlar uchun muhim manba bo'lib, hikoyalar ketma-ketligini to'g'ri tanlanishi va o'qilishi ularning manaviy kamolotga yetishishlarida katta rol o'ynaydi. Jumladan, uning “Ertaklar haqida ertak” (The Tales of the tales: Beatrix potter Ballet, 1971) Yozuvchining mazkur asarlari orasida eng avvalo avtobiografik xarakterga ega bo'lgan “Hindiston quyoshi ostidagi ikki kishi” (Two Under Indian Sun, 1966) “Yig'lamoq emas, quvnamoq davri” A Time to Dance No time to Weep, 1987) va “To'rt xonali uy” (A House with Four rooms; 1989) kabi romanlarini keltirishimiz mumkin. Ularda asosan adibaning bolalik yillari

tasvirlangan bo'lib, bevosita Hindistonda bo'lib o'yan voqealar bilan bog'liq. Qolaversa yozuvchi keyingi hayotini ham mufassal yoritib bergan bo'lib, bu davrlarning tasvirlashda unga o'z singlisi Jon Godden yordam bergan. Ularning hamkorligi uzoq davom etgan bo'lib, hammualliflikda "Shiva kabutarlari" (Shiva's Pegeons,1972), "Marhumlar" (Gone: A third of Stroies,1968) va " Hindiston to'foni" (Indian Dust,1989) kabi romanlarni yozgan. Etnografik asarlar to'g'risida gap ketganda R.Goddenning missionerlar va rohibalar hayotini tasvirlovchi "Shiva kabutarlari", " Farishta arslonlar" (Butterfly Lions,1978) "Bida uyi" asarlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Tarixiy-etnografik asarlar borasida eng mashhur asari sifatida tadqiqotlarning bevosita obykti bo'lgan "Gulbadan: Atirgul nomli Mo'g'il malikasi suratiga chizgilar " (Gulbadan: Portrait of Rose Princess at the Mughal Gourt, 1980) asarini kiritishimiz mumkin. Ushbu asar 2005-yili X. So'piyeva tomonidan "Gulbadanbegim" nomi bilan tarjima qilingan bo'lib, Hindistonda uch asrdan ortiq hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi vakillaridan biri malika Gulbadanbegim hayotini yoritib beradi.

Boburiylar sulolasi orasidan ko'plab mutafakkirlar va ziyo ulashuvchilar yetishib chiqqanligiga qaramay, bular orasida Gulbadan begim alohida o'rin egallaydi. Buyuk shoir, adabiy davlat arbobi, ulkan imperiya tuza olgan qudratli shohning qizi bilan Gulbadan begim aqlu zakovatli va donolikni otasidan meros qilib olgan malika davlat ishlarida ham o'z ta'sir kuchiga ega bo'lib, Boburiylar tarixida muhim rol o'ynagan. Chunonchi, Gulbadan begim uzoq hayoti davomida Boburiylar sulolasining uch hukmdorlari; Boburshoh, Humoyun va shoh Akbar hukmronliklarini ham ko'rgan. R.Goddenning Gulbadan begim hayotiga bag'ishlangan asari ham bevosita ular hayot faoliyatiga o'rin ajratgan.

Shunday qilib adiba boburiylar hayoti va saroy ma'naviy dunyosini yoritib berar ekan, ularning barcha hislatlarini to'laqonli yoritib berishga harakat qilgan. Bu jihatlarni yoritilishi ularning boshqa xalqlar madaniyatidagi hayot tarzi keskin farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatib berishga alohida e'tibor qaratgan.Qolaversa, adibaning asarlari orqali dunyo xalqlari sharq madaniyatida boburiylarga bo'lgan

xolisalona munosabatni ko'rdilar. Shu jihatlariga ko'ra Goddenning ijodi Sharq madaniyati, urf-odatlarini haqida to'liq ma'lumot berilishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Hamda asar voqealari rivojida shuni ko'rishimiz mumkinki, Turkiy xalqlarning urf- odatlari bilan Hind xalqining urf-odatlarini o'zaro qorishib bir-biri bilan omuhtalashgan holda madaniy bog'liq bo'lgan va Turkiy millatlar Hind xalqi odatlarini, Hindlar esa Turkiy xalqlarning urf-odatlarini o'rganganini ko'rishimiz mumkin.

Muallif asarni tarjima qilishda tarjimaning bir necha turlaridan keng foydalangan. Asosan tarjimashunoslikda muhim rol o'ynaydigan tarjimaning ketma-ketlik, transformatsion, kalka va to'g'rima-to'g'ri tarjima usullaridan unumli foydalangan. Ushbu asarning tarjimasi bilan Rumer Godden Turkiy xalqlarning madaniyati, urf odati yashash tarzi haqida, Yevropa xalqlari, hususan, ingliz millatiga o'z tillarida tanishtirgan va bizning buyuk ajdodlarimizning qanday qudratli inson bo'lganligini namoyish qilgan. Adibaning ushbu qilgan oliy hizmatlari O'zbek xalqining, Yevropa xalqlari bilan madaniyatlararo muloqot o'rnatishga katta hizmat qiladi. Zotan, butun yevropa yoshlari o'z oliy dargohlarida Sharq mamlakatlarida shunday buyuk zodlar o'tganligining guvohi bo'lishadi.

2-Bob. “Gulbadanbegim” asari tahlillari

Rumer Godden “Gulbadanbegim” asarining tarjima qilish davomida boburiylar sulolasiga oid yozilgan ko’plab kitoblardan foydalangan. Jumladan, “Humoyunnoma” va “Boburnoma” asarlari ushbu asar dunyoga kelishida asosiy manba hissoblanadi. Asardagi voqealar asosan Hindistonda bo’lib o’tgan. Asar qahramonlarining xarakterlari, xursandchiligi, ziddiyatlari mahorat bilan tasvirlangan. Quyidagi berilgan na’munalarda ushbu asardan o’zbek tiliga tarjimasi bilan parchalar berib o’tilgan.

Ushbu kitobning birinchi qismi Boburshox davriga bag’ishlangan bo’lib shu jumladan, o’sha davrda yashagan Boburning qizi temuriyzoda Gulbadanbegim haqida ko’p to’xtalib o’tilgan:

Gulbadan begim o’z shaxsiyati haqida so’z yuritganda oqilalik bilan o’zini “bu xaqir”, ya’ni bu ojiz banda” deb atardi. Aslida esa u nafaqat oddiy banda,balki Hindistondagi buyuk boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur podshox G’oziyning kenja qizi edi. U ertaklarda uchraydigan afsonaviy qahramonlarga xos nafis ism-Gulbadan degan go’zal bir nom bilan atalardi. Umrining to’fonli va shiddatli damlarida ham u o’zining “Gulbadan”ligini saqlab qola olgan mo’tabar bir inson edi.

U 1522-yoki 1523-yilda Qobulda tavallud etgan. U zamonlarda Sharqda qiz bolalarning (hatto u aslzodalardan bo’lsa ham) tug’ilgan sanasini qayd etish joiz emas edi. Bordiyu falakning gardishi bir aylanib, u Londonda tavallud topganda, uning qirolu Genrix VIII bo’lgan bo’lur edi.Ma’lumki, Genrix VIII Gulbadanning otasi Boburshox singari “e’tiqod himoyachisi”unvoniga sazovor bo’lgan iymon-e’tiqodli hukmdor edi.

She called herself this Insignificiant Person but she was at all infisignificant nor even just a person, though perhaps she was wise to call herself so because her name was Princess Rosebody,which sounds like someone in a fairy tail but she was real, and of real and most dramatic times,being Gulbadan Begam, the youngest daughter of Babur, the Mughal Emperor of India. She was born in Kabul in 1522

or 1523-dates of births of oriental girl children,even royal ones, were not thought worth recording then.

If she had been born in London and not Kabul, Henrix VIII would have been her King-he was given the Defender of the Faith,just as her father,the Emperor Babur would become Ghazi, Avenger of God. [3-bet]

Bu fikrlar shuni anglatib turibdiki, Gulbadan buyuk hukmdor Shoh Boburning qizi bo'lishiga qaramay juda kamtarin hislatga ega bo'lgan va hattoki o'zini bu faqir,bechora deyishdan ham uyalmagan shu darajadagi komila ayol bo'lganligining bir isbotidir. Agar u Londonda tug'ilgan bo'lganda adolat sohibi Qirol Genrix VIIIning qizi bo'lgan bo'lar edi deya takitlab o'tilgan. Chunki Genrix VIII ham aynan o'sha davrda taxt sohibi bo'lgan edi.

Gulbadan iymoni butun, taqvodor musulima edi. "Gul" so'zi "atirgul" so'ziga monand bo'lgani bois ham bu so'z aksariyat malikalar ismini bezab turadi. Chunki, Sharqda Erondan tortib, Xindistonu Xitoygacha bu gulni ardoqlab, e'zozlashadi.

Gul means 'rose' and there were many 'rose' princesses because the rose is the flower most loved and prized in the East from Persia to Hindustan and as far away as China.

Bu yerda Gulbadan begim ismini tariflangan. Uning ismi gul so'zi bilan boshlanganligi sababli Sharqda malikalar ismiga gul qo'shib ism qo'yish rasm bo'lganligini va bu ism juda ardoqlanganligini yozilgan.[3-bet]

Gulbadanbegim uch buyuk hukumdor-otasi Boburshox,akasi Xumoyunshox va jiyani Akbarshox davrini qamrab olgan o'ta murakkab zamonda umrguzaronlik qildi va Akbarshox vafotidan ikki yil avval bu foniy dunyoni tark etdi. Bu hukumdorlar orasida eng mashxuri Akbarshox bo'lsa-da Gulbadan otasi va akasini nihoyatda ulug'lar edi. Broq shuni ham unutmashlik kerakki, agar Akbarshox bo'lmaganda, Gulbadanning mavqe-martabasi bunchalar yuqori ulug'lanmagan,uning nomi o'sha davrda yashagan yuzlab malikalar singari parda ortida,omma nazariga tushmasdan qolib ketgan bo'lardi. Va tabiiyki,uning umr va ijod yo'li haqidagi haqiqatni ochib berish ham hech kimning hayoliga kelmasdi.

O'sha davr muarrixlari tomonidan zikr etilgan ma'lumotlarda Gulbadanning ismi boshqa tarixiy shaxslarning nomlari soyasida qolib ketayotgan bir paytda (1587-1590 yillarda) Akbarshox bobosi Boburshox va otasi Humoyunshoxning hukmdorlik faoliyati haqida tarixiy bir asar yaratish haqida farmoni oliy qabul qildi.

She lived almost through tree reigns:her father Babur's,her brother Humayun's,and her nephew Akbar's,till two years before his death. Akbar was the most famous of the three,yet it is plain he was the one she loved least. All the same,if it hadnot been for Akbar she would have stayed hidden,a begam, or princess,amongst a thousand other begams and no one would have thought of trying to unravel the thread of her existence,a seemingly slender thread,tangled deeply with her name seems always to follow in the shadow of another,which is perhaps what she would have wished,but some timein the years between 1587 and 1590,the Emperor Akbar 'issued and Order': 'Write down what you know of the doings of...-he does not call his grandfather and father Babur and Humoyun .[10-bet]

Malika juda baxtli ayollardan biri bo'lganligining yana bir isboti uning uch hukmdor davrida yashaganligidir. Bular Shoh Bobur, Humoyunmirzo hamda Akbarshox davrida hayot kechirgan. U ko'proq otasi Bobur hamda akasi Humoyunni yaxshi ko'rgani asarda yaqqol sezilib turgan. Akbarshoh esa Gulbadanning tarix sahifalarida qolishiga sabab bo'lgan. Chunki, uni dunyoga tanitgan "Humoyunnoma" asarini Akbarshoh buyrug'i bilan yozgan edi.

Kitob tarjimasining so'zboshisida A.Beverij honim shunday yozadi: "Bu asar (Humoyunnoma)men murojaat qilishim bo'lgan yagona nusxadagi asar edi. Uning ayrim so'zlari malikaning ona tili bo'lmish turkiyda bitilgan. Lekin muallif forsiyni ham mukammal bilishi sezilib turadi.

'Te book is unique', wrote Mrs.Beveridge in the preface. 'Some of the words were Turki which was the Princess's native language –Persian was an accomplishment

Buyuk Britaniya Hindistonni 1868-yili mustamlaka qilgandan so'ng "Humoyunnoma" asari Londondagi Britaniya muzeyiga olib ketiladi. U yerda ushbu asar bilan tanishib chiqqan Ingliz adibasi va tarjimoni asar haqida juda katta tassurotga ega bo'ladi va tarjima qilishga erishadi. Kitob tarjimasining so'z boshisida esa iliq fikrlar bildiradi.

Buni shu o'rinda aytish kerakki, Gulbadan begim yozgan kitobidan Akbarshoxshing ko'ngli unchalik to'lmadi. Chunki u o'z davrining yirik allomalaridan bo'lmish Abulfazl va uning ukasi Fayziyning jimjimador va balandparvoz maqtovlariyu jarangdor olqishlarga ko'milgan iboralarini eshitishga qolgan edi-da.

Obviously Akbar was disappointed;he was accustomed to the flowery ornate descriptions of such flatterers as the court poet Faizi and the poet's brother ,the same Abu'l Fazl;they seem to have held the Emperor under something like a spell.[10-bet]

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, Akbarshoh xarakteri jihatidan o'zini yaxshi ko'radigan va o'zi haqida bildirilgan maqtovlarni xush ko'ruvchi shoh bo'lgan. Bu jihatdan u boburiylar orasida eng buyugi bo'lishni hohlar edi. *Gulbadanbegimning bolalik chog'laridan mehrini qozongan,sirdosh akasining nomi bilan "Humoyunnoma"deb atalgan asari esa, mavjud taomilga binoan "Bismillohir rahmonir rahiym"deb boshlanadi. Muallif keyingi misralarda Akbarshohning farmoni va o'zining unga itoat etgan holda qo'liga qalam olgani haqida sodda,ravon tilda quyidagicha mulohaza yuritadi: " Otamning ruhini shod etish umidida ushbu asarda podshoh bobom (Bobur –tarj.) hazratlari zamonida bo'lgan voqealarni yozishga jazm qildim".*

Gulbadan's book which she veiled under her brother's name as the Humayun-nama,opens with the,then, usual,'In the name of Allah,the Marciful,the Compassionate'-from childhood,it is clear she was on confident,intimate terms with him then tells of Akbar's Order,her dutifull obedience to it,and blessing [on my work] a chapter must be written on my royal father's deeds.

Tabiiyki, bunday ifoda uslubi Akbarshohga maqbul kelmagan, chunki Gulbadan begim o'z bayonida tumtaroq va havoyi hamdu sanolarni juda kam ishlatdi. Asosan Humoyunshoh shaxsiyati haqida so'z borganda "shirinzabon", "haqiqatgo'y" kabi o'xshatishlardan foydalanadi, xolos.

It was too plain and matter-of-fact for Akbar; Gulbadan seldom falls into the fashionable jargon or 'embroidery' and then only in a single phrase and almost always when writing of Humayun: 'his lily-dropping tongue,' 'that altar of truth; [11-bet]

Shu sababdan bu asarni Akbarshoh uncha xushlamaganligi, ushbu asar u o'ylagandek bo'lib chiqmaganligi buning yorqin isbotidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki, asar so'zboshisini Alloh nomi bilan boshlaganligi Gulbadanning Islom diniga e'tiqodi kuchli bo'lganligini ko'rsatib turadi.

Gulbadan dunyoga kelganda, Bobur Qobul taxtiga mustahkam o'rnashib olib, 20 yildan buyon davlatning boshqarish tizimini qo'lida mahkam tutib turgan payt edi. Shimoliy Qunduz, Badaxshon, shuningdek, 1519-yildan buyon Hindistonning Bajur va Svat viloyatlari ham Bobur tasarrufida edi.

When Gulbadan was born, Babur had been lord of Kabul for almost twenty years, was master in the north of Kunduz and Badakhshan and in Hindustan had, since 1519, held Bajur and Swat; [18-bet]

Gulbadan tug'ilgan davr Boburning janglarda g'olib bo'lib saltanatining sarhadlarini ancha kengaytirib olgan davriga to'g'ri keladi. U Qobulga mustahkam o'rnashib olib, Hindistonni egallash maqsadi bilan yurgan davrga to'g'ri keladi.

Gulbadan begimning yozishicha, "Qobulning olinishini Alloh muborak etdi". 1507-yilga kelib taxt vorisi Humoyun dunyoga keldi va keyinchalik uning ketidan yana 15ta farzand tug'ildi. Shariat talabiga rioya qilgan holda Boburning to'rtta xotini bor edi, lekin xarami ancha katta edi. Xaramdagilar, asosan, jangda halok bo'lganlar yoki asir tushgan saroy a'yonlarining xotinlari, qizlari, opa-singillari, amma-xolalari, jiyanlari, cho'rilari, raqqosalari va hattoki, ayrim mag'lub bo'lgan raqiblarning ayollari ham xaramda istiqomat qilgan. Bu hol ayollarning o'lja sifatida talanishiga yo'l qo'ymas edi.

Boburning katta xotini Mohim begim uning eng suyukli malikasi edi. Bobur uni “mohitobim” deb erkalar edi. Qobulda dunyoga kelgan taxt vorisi ham uning o’g’li edi. Bu haqda Bobur shunday deb yozadi:”u uch-to’rt kundan so’ng Humoyun ismi bilan mavsum bo’ldi”. Humoyun-“baxt-omad elchisi” demakdir.

Gulbadanning umr bo’yi eshitgan ertaklarini ,ashulalari va g’azallarini unga Sarvqad ismli bir kanizak ayol so’ylab berardi. Har marosimga musiqa ohanglari hamrohlik qilar edi. Saroy sozandalari nay,karnay, sunray, tor, do’mbira kabi cholg’ularda turli kuy- qo’shiqlar ijro etishar edi. Bularning hammasiga saroy honimlari ko’nikib qolgan edilar lekin Hind raqqosa qizlari ular uchun juda g’aroyib tuyular edi. Bu raqqosalar yangi dunyoning birinchi manzaralari edi.

Acrobats and jugglers could be watched,perhaps a snake charmer from Hind; there were jesters and storytellers and reciters, particularly one woman, Sarv Qad, ‘Straight as a Cypress;’she was to make, as it were, a background of song and story almost all through Gulbadan’s life. There was music for every occasion; the court musicians played fluts,luts-long-necked or short-necked – cymbals,drums.[49-bet]

Gulbadanning yetuk malika bo’lishi va adabiyot, san’atga qiziqishida saroy ma’naviy dunyosi, urf-odatlari ham katta turtki bo’lgan desak mubolag’a bo’lmaydi. Chunki uning ma’naviy hayotida va tarbiyasida Sarv Qad ismli kanizak ayolning so’ylab bergan ertaklari,g’azallari, ashulalari juda katta o’rin egallagan.

1527-Yil boshlarida Boburning ikkita temuriyzoda amrabegimlari o’z farzandu arjumandlari bilan podshoh huzuriga – Hindistonga tashrif buyurdilar. Bobur ularga katta ehtirom ko’rsatib, Agra tashqarisida kutub oldi va muvaqqat saroy binosiga joylashtirdi. Ular bu yerda o’nbir oy istiqomat qildilar. Bunday uzoq mehmondorchilikdan so’ng amrabegimlar Qobulga qanday taassurotlar bilan qaytganliklarini tasavvur qilish qiyin emas. Narigi qirg’og’I ko’rinmaydigan ulkan daryolar, cho’llar va changalzorlar, ajoyib daraxtlaru g’aroyib mevalar, turli-tuman maymunlar, sayr uchun miniladigan fillar, betakror hayvonot

olami,ilonlar, issiq havo va kuchli yomg'irlar- ularning Hindiston haqidagi asosiy taassurotlari edi.

As early as 1527,twoTimurid aunts of Babur had followed him to Hindustan,why,or how, no one knows, but they took their children with them and were met by Babur outside Agra where he housed them in a temporary palace. They stayed eleven months and it can be imagined what tales they brought back: of rivers so wide that the further bank could not be seen: of deserts and jungles: strange trees of monkeys, elephants not for war but for riding: of insects,mosquitoes,snakes,heat,deluging rain,but above all they had been and come back.[14,48-bet]

Boburshoh Hindistonda bo'lgan davrda o'z qarindoshlari, ba'zan oila, farzandlaridan ham yiroq bo'lgan. Chunki uning yaqinlari olis Qobul shaxrida qolib ketgan va u yer Hindistondan juda uzoqda edi. Bobur ularni juda sog'inar edi. Shu sababli yaqinlari ba'zan Qobuldan Hindistonga mehmonga borib turishar va Bobur ularni juda shohona kutib olardi. Uning amnavachchalari ham uning dargohiga borib turishgan va juda katta ta'surotlar bilan qaytishgan.

Asarning II qismi Boburshoh deb nomlangan va Bobur hayotida bo'lib o'tgan voqealar tasvirlangan. Bevosita, malika Gulbadan ham bu voqealar ishtirokchisi bo'lgan.

Bobur, irodasi mustahkam qatiyatli shaxs bo'lib, o'z oldiga bir maqsad qo'ysa, uni ro'yobga chiqarmay qo'ymas edi. Garchand u shoh bo'lsa-da, umri mudom safar va yurishlarda o'tardi. Bu yurishlar davomida u bir joydan ikkinchi joyga osonlik bilan ko'char edi. Uning safardagi asosiy yuki chodirlar bo'lib, ular qisqa muddat ichida mohirlik bilan o'rnatilib, zarur bo'lganda osongina yig'ishtirilar edi.

Babur,the nomad, couldnot see,once decision was made, why it couldnot be carried out at once. A nomad, even a princely one,could always move swiftly: his riches were in tents- wonderfully lined, it was true but easily rolled up and carried as were his carpets; [49-bet]

Bu o'rinda R.Godden Bobur xarakteriga to'xtalib o'tgan va shohni juda qatiyatli inson bo'lganligini ta'kidlagan. U har qanday qiyinchilikka dosh bera olganligi ko'plab janglarda esa bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib yurishiga to'g'ri kelganligini yozgan.

“Nihoyat ovqatlanib bo'lgach , -deya o'sha uzoq davom etgan ziyofatni oltmish yildan so'ng eslab hikoya qiladi Gulbadan, - men mahofaga o'tirib, hazrat podshoh bobom huzuriga borib, ko'rishib, o'zimni uning poyiga tashladim”. Bu buyuk hayrat onlari . Qizaloq uchun bu notanish ota nafaqat qahramon, balki podshoh, hadisi shariflarda aytilganidek, “Allohning yerdagi soyasi” edi.

Bobur o'z xotiranasida Agrani “besafo va xarob yer” deb ta'riflaydi. Haqiqatdan ham, Jamna daryosidan esadigan shabadaga yuz tutib turadigan bu shaharni Qizil qal'a va Toj Mahal maqbaralarisiz shahar sifatida ko'z oldimizga keltirib bo'lmaydi. Ana shu binolar Agrani butun dunyoga mashhur qilgan.

U Qobulni olishdan avval uch marta uylangan. Samarqand sultoni Ahmad mirzoning qizi Oysha Sulton begimga unashtirilib qo'yilgan edi. Biroq balog'at yoshiga yetgach bu qizga uncha mehri tovlanmadi. Onasining zo'ri bilangina unga uylanadi-yu, lekin ko'p o'tmay Oysha begim musulmonlarga hos bo'lmagantarzda, Boburdan omad yuz o'girgan kezlarda omadsiz erni tashlab, otasisaroyiga ketib qoldi. Keyinroq yana onasining istagi bilan Zaynab Sulton begimga uylandi, lekin bu nigoh ham barqaror bo'lmadi-kelinchak chechak kasaliga muhtalo bo'lib olamdan o'tdi...[14,24-bet]

He had been married three times before the day of Kabul; at six was betrothed to the five-year-old Princess Ayisha of Samarkand, but, when they were old enough for marriage they so disliked one another that then Babur's mother had to drive him to her tent, and Ayisha left him, unusual for Muslim wife. His mother insisted he took another Zaynab Sultan Begam, but this was not happy either and she died of small pox. The last was young Princess who had fallen in love with him...within a year, she died in childbirth- Masuma-Innocent.

Ushbu asarda boshqa asarlarda tilga olinmagan tarixiy shaxslarga ham yetarlicha e'tibor berib o'tilgan. Mana shunday shaxslardan biri Boburning o'z

xotinlaridan biri Gulruh begimdir. Bu shaxs Gulbadan tomonidan ko'p bora esga olingan bo'lib, alohida hurmat ko'rgazilganligi qayd etilgan.

Garchand Boburning ikkinchi xotini Gulruh begim Kamron mirzo va Askariy mirzolarining shuningdek, yana bir sog'lom o'g'il va bir qizning onasi bo'lsa ham, Boburning nazaridan bir oz chetda qolgan edi. Uning ismini Bobur hech qayerda tilga olmaydi. Uchinchi xotini Dildor begimga nisbatan esa bir oz sovuqroq nazar bilan qaraydi. Boburning bu ayollarga uylanish tarixi bizga unchalik ravshan emas. [26-bet]

The second wife Gulrukh, "Rose-Faced" almost to have been disregarded though she was the mother not only of Babur's two sons Prince Komron, the trouble maker, and his royal brother Askariy, but of another healthy boy and girl; Babur never mentioned her, while his treatment of Dilbar, third wife and mother of Gulbadan can only be called callous.

Asarda tarixiy shaxslarga shunchaki tasnif berish bilan cheklanib qolmay Gulbadan begim nuqtayi nazaridan ularning ichki dunyolarini ham ko'rsatib beriladi. Jumladan Mohim begimning o'z kundoshi Gulrux begim bilan bo'lgan sovuq munosabati asl sababi aniq ko'rsatib berilgan.

Gulrux begimning o'g'illari Kamron yoki Askariyning Humoyun o'rnini tortib olish havfi esa unga hech tinchlik bermasdi. Buning ustiga, 12 yoshga to'lgach, Humoyunni harbiy ishlar va sarbozlikka o'rgatish uchun onasi bag'ridan olib ketilishi Mohim begimni doimo tashvishga solardi.[3,28-bet]

Mahem could not bear to think of Gulrukh's Kamron or Askariy taking her own sons place, added to which, in the custom of those days, at twelve years old Humoyun had to leave haram.

Ushbu ma'lumotdan shuni anglashimiz mumkinki, Mohim begimning o'g'li Humoyunmirzo garchi taxt vorisi bo'lsa ham, begimning ko'ngli doim xavotirda turardi. Chunki o'g'lining o'rnini egallashi mumkin bo'lgan o'gay akalari ham davlat boshqaruv ishlari va harbiy sohada undan qolishmas edi.

Bobur 1530-yilning 25-dekabrida yorug' olam bilan vidolashdi. "Farzandlar, yaqin qarindoshlar va boshqa odamlarning boshiga qora kun

tushdi,-deb yozadi Gulbadan bu haqida, o'sha musibatli kunni yillar osha iztirob bilan eslar ekan.-Hamma faryod-fig'on ko'tarib, betoqat bo'lardilar. Har kim o'zining mahfiy burchagida mana shu qora kun dardini chekardi''.

Babur's death took place on December 26th,1530. Babur was the day, Gulbadan wrote as if she shuddered all these years afterwards at remembering it. The Begams, the call dren and kinsfolk all bewailed and lamented; voices were uplifted in weeping;there was utter dejection. Each passer that ill-fated day in a hidden corner.[14,69-bet]

Shoh Boburning qazo qilishi boburiylar uchun juda og'ir musibat bo'lgan. Chunki, saroy boshqaruvi ham endi o'z o'rnini yo'qotishi mumkin edi. Bu musibatni hamma juda og'ir iztirob bilan qarshi olgani tabiiydir. Uning o'limini hamma juda og'ir tashvish bilan qarshi olishdi. Boburshoh hamma yaqinlari uchun juda qadrli bo'lganini ushbu ma'lumotlardan bilish qiyin emas.

Ayniqsa , Gulbadan uchun bu musibat hammadan ham og'ir kechdi. Aynan ana shu keyingi oylarda u podshoh otasini yaqindan tanigan,unga nisbatan jajji qalbining to'ridan cheksiz mehr-muhabbat tuyg'ulari uyg'ongan edi. Mohim begimning yuragi bir tomondan qayg'uga to'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan,o'g'lining ota meros taxtiga ega bo'lganidan cheksiz fahrlanar edi.

For her it was a more personal grief than for most others a small heart can love intensely and she had come to know her Baba in these months. Maham too must have jarred, she was so triumphant for Humayun.[14,69-bet]

Asarda tasvirlanishicha bu og'ir kunlar hammadan ko'ra Gulbadan uchun qattiq zarba bo'ldi. Chunki, avval Qobulda yashab endigina otasining oldiga kelgan qizaloq unga mehr qo'ya boshlaganini bilishimiz mumkin. Bu alam esa uning ko'zlaridan shashqator bo'lib tinmadi. Undan tashqari, bu ko'rgilik Boburning eng suyakli rafiqasi Mohim begimning hayotida ham qattiq zarba bergani yozilgan. Lekin, asarda begimning ovuntirgan bir narsa ya'ni o'g'li Humoyunning taxt vorisi bo'lishi uni hursand qilgan deya ta'kidlab o'tilgan.

“ Ertasi kuni musulmonlar taqvimi bo'yicha jumodul avval oyining muqaddas juma kuni, 1530-yil dekabrda Humoyun podshoh hazratlari taxtga o'tirdilar. U kishining podshohligini hamma muborakbod qildi”, deb yozadi Gulbadan begim.

As it was on the next Friday, the Muslim Sabbath or holiday, December 29th, 1530, the Emperor [Humayun] mounted the throne and everyone said, “May all the world be blessed under the rule”. [14,69-bet]

Nihoyat taxtga Humoyun o'tirgani va bu tuxfa uning ko'plab dushman orttirishiga sabab bo'lganligini ta'kidlab o'tilgan. Bu vorislik uning o'gay akasi Hindolga juda qattiq ta'sir etgan va qay tarzda bo'lsa ham taxtni egallash payida bo'lganini tasvirlab o'tilgan.

Asarning III Qismi Humoyun hukmdorligiga bag'ishlangan bo'lib, uning davrida juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelganligi tasvirlangan.

Humoyun hukmdorligining birinchi kunlaridanoq otasi Boburshoh “saltanat tashvishlari “ deb ataydigan holatga duch kela boshladi. Uning ishlari hadeganda olg'a bosavermadi. Humoyunning o'sha davrdagi hayoti o'zi tasavvur qila olmaydigan janglar, isyon va hoinliklarga qarshi kurashlarga to'la holda o'tdi. Uning hayot yo'li o'zi e'tiqod qilgan ilohiy oyatlar nuri bilan oydinlashgan bo'lsada, biroq bu duolar umrining ohirga paytlaridagina ijobat bo'la boshladi.

During the ten years after the death of his father the people dwelt in repose and safety, obedience and loyalty. From the opening of his reign Humayun was beset by what Babur would have called ‘normal troubles’ but Humayun , ill-luck: wars and rebellion and treacheries that he could not or would not credit. His life, though , was brightened by the ‘omens’ in which he implicitly believed; in the end they did come true but they might have triumphed far earlier-in fact, his ‘troubles’ might never have arisen –had it not been for two great obstacles: the Emperor Humayun himself, his character, its weakness for opium, that and his brothers. [14,70-bet]

Ushbu satrlardan shuni tushunishimiz mumkinki, Humoyunmirzo garchi saltanat hukmdori bo'lsada shohlik tashvishlari uning yelkasiga yuk slogan. Uning dushmanlari ko'p bo'lganligi sababli ishlari orqaga qarab yurgan. Hayoti

eng og'ir kurashlar bilan kechgan Humoyunmirzo islom diniga juda etiqodli bo'lgaligini ko'rishimiz mumkin.

Humoyun Bengaliyaga kelishdan avval endigina o'n sakkizga qadam qo'ygan shahzoda Hindol mirzoni Agra bilan a'loqalarini ta'minlab turish maqsadida ortda qoldirib ketgan edi. Hindol mirzo o'ziga bildirilgan ishonchni suiiste'mol qilib, Agraga kelib hokimyatni egallab oldi. Buning ustiga, Humoyunshoh yuborgan keksa va ishonchli kishi bo'lgan choparni shafqatsizlik bilan qatl ettirdi. Gulbadan va xaramdagi boshqa begimlar uchun eng ayanchlisi shu bo'ldiki, Hindol mirzo musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan juma kuni o'qiladigan maxsus xutba namozini podshoh saroyida o'qitdi va bu bilan podshohning oliy xuquqi bo'lgan shatni buzib, o'zini saltanat hukmdori, deb elon qildi.

Hindal, now eighteen, had been left to keep communications open with Agra but deserted his post, installed himself at Agra and killed the venerable and trusted messenger Humayun sent to him. Worst of all to Gulbadan and the elder ladies, Hindal read the Khutba, the sacred sermon of the Muslim Sabbath, Friday, in the royal palace, a privilege that belonged only to the sovereign, which meant that Hindal was proclaiming himself Emperor.[14,76-bet]

Humoyunning xarakteri ko'p o'rinlarda juda sodda tasvirlangan. U juda ishonuvchan bo'lib, hatto o'ziga qarshi ukasi Hindol mirzo hatti-harakatlaridan unga qarshiligini sezmaydi va jangga ketar chog'i saltanatni unga ishonib topshirib ketganini ham ko'rishimiz mumkin. Ukasi esa o'sha vaziyatdan foydalanib saltanatga ega bo'lishga urungan.

Bag'ri g'am-g'ussaga to'lgan, yarador Humoyun bir amallab Agraga yetib boradi. Qonuniy hukmdor kelayotganini eshitgan Hindol Dehliga qochib qoladi. Bu yerda u vaziyatni o'rganish hamda o'zini Qobul va shimoliy hududlar podshohi sifatida e'lon qilishni poylab, Qobuldan kelayotgan Kamron mirzonong qo'liga tushadi.

Wounded, bereft and sick at heart, Humayun managed to get back to Agra. When Hindal heard that the real Emperor was coming, he fled to Delhi where he

was seized by Kamran who had come down from Kabul on the pretence of conferring with Humayun but in reality to see if the time was ripe to proclaim himself King of Kabul and the North.[14,78-bet]

Asardagi ushbu voqealar o'sha davrdagi Humoyunning eng qiyinchilik kunlaridan dalolat beradi. Chunki bu vaqtlarda Humoyun nafaqat muvaffaqiyatsiz janglari bilan aziyat chekar edi, balki, uning aka-ukalari ham uni yo'q qilish payiga tushib qolgan edi. Lekin Humoyunning oq ko'ngil, soddadilligi uni doim falokatlardan asrab yurardi.

Oradan bir necha kun o'tgach, Humoyunshoh Gulbadan va Hindolning tuqqan onasi malika Dildor begim huzuriga qo'lida Qur'oni karim bilan kirib keldi va mulozimlarga ularni holi qoldirishlarini buyurdi. Ular chiqib ketgach, u Dildor begim va Gulbadanga murojat qilib dedi: "Mening ko'nglimda Hindolga bo'lgan hech qanday g'araz yo'q. Agar ishonmasangiz, mana"- shunday deb, u Qur'oni karimni qo'lga oldi. Dildor begim va Gulbadan Humoyunning qo'lidan bu muqaddas kitobni oldilar.

A few days later he came to see my mother. He had with him the Quran. He commanded the attendants to retire for a while, and they rose and there was privacy. Then he said to Dildar begam and this Insignificant One: " May what I do be right .. There is no anger in my heart against Hindal. If you don't believe it.." he had lifted the Holy Book when her Highness my mother and this Poor thing snatched it from his hand.[14,79-bet]

Rumer Godden ushbu epizodda Sharqqa hos bir an'anani ko'rsatib bergan. Musulmon olamida Qur'oni karim eng muqaddas hissoblanganligi sababli, agar biror kimsa o'z fikrini isbotlamoqchi va rostligini bildirmoqchi bo'lsa ushbu kitobni ushlab qasam ichardi. Lekin bu odat musulmonchilik taomillariga to'g'ri kelmas edi. Hindolning o'limidan so'ng Humoyun noqulay vaziatga tushib qoldi. Shu sababli, uning onasi Dildor begimga buni isbotlash uchun muqaddas kitob bilan qasam ichmoqchi bo'ldi.

Chauza daryosida ro'y bergan falokat paytida Humoyun oti bilan daryoni kechib o'tayotganda uning ostidagi ot suvga cho'kib o'ldi. Shunda podshohning

baxtiga orqasida buqa terisidan qilingan meshni shishirib unga minib suzib kelayotgan bir meshkobchi uni g'arq bo'lishdan saqlab qoldi va meshga mindirib, uni daryoning nargi qirg'og'idagi xayfsiz joyga olib chiqib qo'ydi.

At the debacle at Chausa when Humayun tried to cross the river, his horse had sunk under him and he would have drowned had he not been rescued by a humble water-carrier who floated the Emperor to safety on the inflated buffalo skin used to carry water. [14,80-bet]

Albatta, Chaura daryosidagi jangda Humoyun ko'p talofat ko'rgan. Hattoki o'zi ham bu dunyoni tark etishiga sal qolgan. Daryoga oti cho'kib ketib, o'zi ham g'arq bo'layotgan bir paytda oddiy eshkakchining uni qutqarib qolishi ham bir mo'jiza edi.

Minora tepasiga ikkita tor tosh zinadan chiqilardi. Podshoh Humoyun zinalarni asta bosib tushib kelayotganda qal'a ichidagi masjidan muazzinning azon tovushi eshitilib qoldi. Humoyun tiz cho'kib duoga qo'l olmoqchi bo'lganda oyog'i uzun choponining etagiga o'ralashib, tanasi chayqalib ketdi va zinadan pastga qarab dumalab ketdi.

Oradan uch kun o'tgach, u foni dunyoni tark etdi.

This room is reached by two narrow tights of stone steps, the Emperor had started down them when, from the Fort mosque, the muezzin gave the call to prayer. Humayun tried to kneel, caught his foot in his long coat, and fell from the top to the bottom of the steps. Three days later he died.[14,105-bet]

Humoyun umrining so'ngi damlarida faqat yaxshiliklar qilishga o'zidan yaxshi nom qoldirishga harakat qilgan. Ko'plab baland binolar qurdirgan va shu minoralarni tomoshsha qilib yurgan kezlari, hayoti ohirlab qolganini o'zi ham sezib qolgandek edi go'yo. To'satdan oyog'I toyib ketishi sabab bo'ldiyu shu-shu o'rnidan qaytib turmadi.

Asarning so'ngi IV qismi bevosita Akbar hukmdorligi davrini o'z ichiga oladi. Bu davrda ham boburiylar sulolasi o'z ravnaqiga erishadi. Akbarshoh ko'plab xayrli ishlar qilish bilan birga o'z zulmini ham qattiq o'tkazadi.

Gulbadan Qobuldan Hindistonga Akbar hukumdorligining ikkinchi yili qaytib keldi. Humoyun bexush holda o'lim to'shagida yotgan kunlarda xaramdagi ayollardan birontasiga ham uning dardiga malham bo'lish, unga dalda berish nasib etmadi. Tabiiyki, bu hol afsus va nadomatlarga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Gulbadan came back to India in the second year of Akbar's reign.

It must have been grievous to the royal ladies of the haram that none of them had been with Humayun at the time of his death, able to ease and strengthen him during the last days of suffering, though he may have been unconscious.[14,122-b]

Humoyundek akasini yo'qotish tabiiyki Gulbadanbegimga juda qattiq ta'sir qiladi. Chunki,begim akasini juda yaxshi ko'rar va akasi ham unga juda mehribon edi. O'limidan avval xushsiz holatda yotga Humoyunni ko'rib Gulbadanbegim anchagacha o'ziga kela olmay yurdi.

Xemuning qonga belangan va badbo'y kallasi Qobulga keltirildi. Bu, birinchidan, Akbarning eng daxshatli raqibi bo'lmish Xemu yosh podshoxning yo'lidan batamom supurib tashlangani va Akbar o'z qonuniy taxtini egallaganidan habar bersa, ikkinchidan, Hindistonda xayfsizlik ta'minlanib, xaram ahlining Dehli yoki Agraga kelib, Akbar huzurida bo'lishiga imkon yaratilganidan dalolat berardi.

Hemu's head went to Kabul,it was gruesome,gory and stinking as was Hemu's. It gave the ladies in Kabul relief and delight because it was thought a double message: first that their boy Emperor routed his rivals and won his throne, and also that it was saw now for the haram to come to Hindustan and join him earlier in Delhi or Agra.[14,113-b]

Ushbu ma'lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki, Akbarshoh o'z hukmdorligi davrida juda beshavqat siyosat olib borgan. Hattoki janglarda mag'lub bo'lgan dushmanlarini kallasini sapchadek uzib tashlab, saltanatining peshtoqiga osib qo'yishni odat qilib olgan edi. Bu siyosat bilan qolgan dushmanlarini cho'chitar va qaysidir ma'noda haram ahlini himoya qilgandek bo'lar edi.

Akbar enaganing farzandlariga katta imtiyozlar bergan edi. Biroq enaganing kichik o'g'li Adhamni shoh haramiga kirishga urinayotgan paytda soqchilar tutib olganidan habar topgan Akbar g'azab ustida uni bir musht urib qulatdi va haram joylashgan binoning ikkinchi qavatidan marmar zina bo'ylab pastga uloqtirdi. Bu zarbdan uning o'lmaganini ko'rgach, ikkinchi marta tepadan pastga uloqtirishga buyruq berdi. Shu bilan Adhamning qilmishi o'z boshini yedi.

Akbar had given a great deal of licence to her sons but now the youngest, Adham, behaved so abominably that, catching him daring to go into the imperial haram itself-an unpardonable trespass-the Emperor had him thrown down a second time. Adham died and Maham Anaga, disgraced and disillusioned, only survived him for forty days.[14,130-b]

Ushbu ma'lumotlar bilan adiba, asarda, Akbarshohni o'taketgan beshavqatligini isbotlamoqchi bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki uni enagasinin o'g'li bilan emakdosh bo'lib qolgan Akbar hattoki uni o'ldirishdan ham tonmaydi. Enagasi esa uni o'z volidasidan ham yaqin edi. Bu ko'rgilikka chidolmagan enagasi ham vafot etishi shoh Akbar uchun uncha ta'sir qilmaganligini yoritib berilgan.

Ichburug' kasalligi xuruj qilib qolgan Akbar o'zini ichkariga olishga majbur bo'ldi. Bu xastalik ohir-oqibatta Akbarning o'limiga ham sabab bo'ldi.

Akbar had to withdraw ill; in fact the brought on the first fierce attack of dysentery thst was eventually to kill him.[14,152-bet]

Hayotining so'nggi damlarida Akbarshoh og'ir kasallikka duchor bo'ldi. Bu kasallikdan Akbarshoh ancha aziyat chekdi va achinarli ravishda vafot etdi.

Albatta, Gulbadanga shahzoda Xurramni hukmdor sifatida ko'rish, uning hayrli va olamshumul ishlaridan g'ururlanish nasib etmadi. 1603-yilning fevral oyida Angliya qirolichasi Yelizaveta I vafot etgan yilda, sakson yoshida Gulbadanbegim ham bezgak kasali ta'sirida bu foniy dunyoni tark etib, boqiy dunyoga ravona bo'ldi. Hamidabonu begim Gulbadanning so'nggi daqiqalarigacha u bilan birga bo'ldi. Atrofidagi qarindosh-urug' va yaqinlari bu oqila va aslzoda ayolni ohirgi yo'lga kuzatib qo'yishdi.

She was not, of course, to see this. In February 1603, the same year that saw the death of Elizabeth the First of England, Gulbadan, at eighty, was smitten with a fatal fever. Hamida was with her in those last hours, as were a few of her old friends among the relatives. They brought her the last way. [14,152-bet]

Uch buyuk hukmdor davrida yashagan malika Gulbadanning hayoti ohirlab qolgan edi. Agar yana hayot qilganda edi balki nabirasi Xurrambekning qilgan buyuk ishlariga ham guvoh bo'lardi deya yozuvchi ta'kidlab o'tgan. Shunga qaramay sakson yil umur ko'rgan malika o'z hayotini mazmunli o'tkazgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Gulbadan begimning nomi jismi kabi izsiz o'chib ketmadi. Vafotidan keyin Hamidabonu begimni "Mariyam makoniy" deb ulug'ladilar. Gulbadan esa, o'z nomi bilan tarixda abadiy qoldi: Malika Gulbadan.

Uning dafn marosimida Akbar o'zi shaxsan ishtirok etdi, bir farzand kabi uning tabarruk tobutini yelkasida ancha joygacha ko'tarib bordi...

There seems to have been no 'death name' for Gulbadan. Hamida was to be known as Miriam Makhani in tribute, oddly enough. To the Virgin Mary, but Gulbadan lives on in history as herself, Princess Rosebody.

Akbar himself helped to carry her bier. [14,153-bet]

Gulbadan begim o'zidan ko'plab yaxshi asarlar va namuna qoldirib o'z nomini hali ham o'chib ketmasligiga sabab bo'lgan. Uning nomi hali ham turkiylar tarixida muhrlanib qolgandir.

2.2-Bob. Gulbadanbegim asarida saroy sharoiti va an'analarini tasvirlanishi

Rumer Godden asarni tarjima qilish jarayonida Boburiylar hayotidagi urf-odatlari va saroy ma'naviy dunyosini kengroq yoritib berishga harakat qilgan. Uning ushbu urf-odatlarni yozishida hayoti davomidagi Sharq xalqlari bilan Hindiston diyorida yashab o'tganligi qo'l kelgan bo'lsa ajab emas.

Qobuldagi saroyda o'g'il va qiz bolalar birga taxsil olgan bo'lishlari kerak. Qizlar yumshoq o'rindiqlarda ustozining oyoq tomonida o'tirib saboq olganlar, ularni enagalari maktabga olib borganlar. O'quv xonalarida kitob o'qish uchun mahsus lavhlar, yozuv uchun maxsus taxtachalar qo'yilgan. Yozuv uchun ular siyohdan foydalanishgan. Bobur o'g'li Humoyunga qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan davot-siyohdon sovg'a qilgani haqida ma'lumot ham bor.[34-bet]

In the Court of Kabul boys and girls seem educated together, though the girls, sitting on the cushion or at the master's feet are always shown attended by their mamas". The schoolrooms were furnished with small crossed bookstands for reading, tables for writing – they must have used ink as Babur once sent Hindal a jeweled inkstand.

Gulbadan begim haqidagi asarda turli davrlarda sodir bo'lgan tarixiy voqealar xususida ham fikrlar bildirilgan bo'lib, ularda ham muallifning holislik prinsipi o'z aksini topadi. Bu ma'lumotlarning ko'pchiligi tarixiy solnomalarda tushurib qoldirilgan bo'lib, ular bevosita malika Gulbadan nuqtayi nazaridan berilayotganligi bois aniq va to'liq ma'lumotlar hissoflanadi.

Ba'zi rivoyatlarda aytilishicha, Jaypur va Jodxpur viloyatlarida varrak uchurish musobaqalari bu o'lkalarga boburiylar kelishidan avval ham o'tkazib turilar ekan. Uzoq o'tmishda, hali qozixonalar bo'lmagan paytlarda yer-mulk mojarolari, moliyaviy baxs-munozaralar ana shunday musobaqalar orqali hal qilinar ekan.[33-bet]

Best of all are kite battle when string is coated with mixture of glue and powdered glass, which hardens to razor sharpness. Folk stories of Jaipur and Jodhpur tell that this sport was popular along before the Mughals and in far off

days, before there was law courts disputes over land or money were settled in such a fight.

Bundan tashqari Gulbadan begim hayotini va taqdirini keng yoritib berish jarayonida, uning yashash tarzi, oilaviy ahvoli haqida ham ma'lumotlarga ham ko'p murojat qilgan. Gulbadan begim malika bo'lganligi bois, bu ma'lumotlar o'z navbatida O'rta asrlar davridagi saroydagi hayot tarzi, saroydagi o'zaro munosabatlar ,saroy ayonlarini, xususan ayollarning mashhulotlari borasida qimmatli ta'rixiy manba hisoblanadi. Chunonchi saroy hayoti haqida aynan malikalardan ko'ra yaxshi batafsilroq ma'lumotlar oladigan kishi bo'lmagan. Zotan saroy va ayniqsa xaram tashqi aloqalardan mustahkam himoyalangan bo'lib,saroy ahli deyarli tashqi olamdan uzilib qolgan edilar. Bu holat ayniqsa asardagi Bobur shohning Hindistondagi g'alabasi davrida qo'lga kiritilgan raqqosa qizlari va cho'rilarni xaramdagilarga sovg'a tariqasida yuborganligida yaxshi yoritib beriladi.

O'rta asrlarda saroy malikalari orasida savodxon ayollar ehtimol, ko'p bo'lmagandir, lekin Gulbadanbegim o'z davrining eng mukammal bilimli, fozila ayollardan edi. U hamisha mutolaa bilan shug'ullangan.

R.Goddenning" Gulbadan begim" asari tarixiy-etnografik asar bo'lganligi bois, unda Hindiston tarixi bilan bog'liq voqealarni yoritib berish bilan bir qator turli hind xalqining urf-odatlarini haqida ham batafsil ma'lumot berilgan. Ushbu ma'lumotlar quyidagiga o'xshash epizodlarda yaqqol seziladi.

U zamonlarda, Sharqda qiz bolalarning (hatto ular aslzodalardan bo'lsa ham) tug'ilgan sanasini qayd etish joiz emas edi.

Dates of birth of orientalgirl children even royal ones were not thought worth recording.

Musilmonchilik taomillariga ko'ra, aksariyat hollarda marhum zotlarning ismlari bevosita tilga olinmasdan,ularga nisbatan "rahmatli"so'zini qo'llaniladi.

[8-bet]

But by the given them by Muslim, customs after death different names, that ,mercifully,their mistakes and misdeads, would not be attributed to them, when they had left the world.

O'sha paytlarda ham huddi hozirgidek, befarzand aslzoda ayollarning bola asrab olishi rasm bo'lgan edi. Biroq hech qachon xaramdagi ayollarning yoki kundoshining farzandini emas, balki biron o'rtahol ayollarning bolasi asrab olinar edi. Dildor og'acha begim...[28-bet]

Ow and again childless royal wife has adopted a child, usually from a good but multi-class woman, but never from, within the haram especially not from one of her husband's own wives, but Babur gave way to Dildar's represent.

Afg'onlar va musulmon qabilalarining urf-odatiga ko'ra musulmon bolalari chaqoloqlik davridan to qirq kunlik bo'lguniga qadar yolg'iz qoldirib bo'lmaydi. Ularning oldiga begonalarning kirishi man qilinadi. Ona –bola mehri ana shu tariqa shakllanib, mustahkamlanib boradi.

Muslim babies then were not only loved but codded the tradition among tribesmen and Afghans, was a baby didn't leave the warmth of its mother's or nurse's body until fourty days, after its birth, so the bond was close and the child lulled with security to love.

Ushbu epizodda Sharq madaniyatidagi o'ziga xos "chilla" odati tasvirlanishi orqali go'daklarga tug'ilgan ilk kunlaridanoq "mehr muruvvat ko'rsatilishi" aytib o'tilgan. Ona –bola munosabatlari boshqa epizodlarda ham yoritib berilgan.

Adibaning asarlari Sharq ayollariga hos nazokat, muhabbat va sadoqat tuyg'ulari ko'rsatib berilganligi bilan bir qatorda ularning shijoati, g'ayrati ham alohida ta'kidlab o'tilgan. Jumladan saroy xaramidagi ayollar ko'ngilxushliklari vositasi bo'lgan ov manzaralarida malikalarning qurol- yarog' ishlatishlari , otda yurishga mohir bo'lganliklari orqali yuqorida aytilgan jihatlar ifoda qilinadi.

Ayollar shikorga ham qiziqib chiqib turishar edi. Albatta, ulardan bir-ikkitasigina ov sirlarini yaxshi bilishar edi. Ularning ayrimlari o'rgatilgan lochinlar bilan ovga chiqishar, kamonbozlik qilishardi. Bu hol, shubxasiz, ajoyib manzara kasb etgan bo'lsa kerak. Ular baquvvat ayollar singari uzangiga mahkam oyoq tirab, kamonbozlardek qadlarini tik tutib turardilar, keng va serviqor liboslari Qobul shamollarida sokin hilpirab turardi.

The woman went shikar, though it was only one or two who actually shot; they went practical archery, which must have been a beautiful sight the ladies poised, upright, as archery have to stand, with all the strieght of women, their ample clothes blown Kabul wind.

Bu epizoddan ko'rinib turibdiki. Sharq ayollari hususan turkiy ayollar xarakteri jihatdan jasur, qo'rqmas va erkaklarga hos shijoatni ko'rishimiz mumkin. Ular hattoki ot minib, ov qilishga ham usta bo'lishgani bu haqiqat edi.

Sharqda shunday bir e'tiqod borki, unga binoan, agar biror kimsaning- u ayolmi, erkakmi yoki yosh bolami- ahvoli og'irlashib qolsa, uning eng qadrli va aziz narsasini Alloh yo'lida sadaqa qilish lozim bo'ladi. Agar bu sadaqani Yaratgan o'z dargohida qabul qilsa, buning evaziga Alloh bemorning jonini qaytarib beradi, degan tushunchaga binoan avval duo o'qiladi, hozir bo'lganlarning barchasi birgalikda Parvardigorga iltijo qiladilar; undan keyin Allohga munoajat etuvchi bemor atrofida aylanib iltijo qiladi.

There has always been, in the East, a belief that, if anyone offers to God the thing most dear to them, nad God accepts it the life of mortally ill man, woman or child will be given in exchange. The rite is simple: first a prayernis made, not only by the suppliant but by everyone who can be gathered to intercede then the suppliant walks round and round the sickbed.[14,65-bet]

Sharqda asosan Musulmon dunyosida imon e'toqod juda kuchli bo'lgan chunki, ular ba'zi irimlarni ro'yobga chiqadi deya o'ylashar edi. Hususan ushbu asarda tasvirlangan Humoyunning og'ir bemorlik davrida Boburning qiyin ahvoli tasvirlangan. Musulmonchilikda zakot, yana sadaqa degan rasm-rusmga ko'ra eng yaxshi ko'rgan yoki eng kerakli narsasini nochorlarga berib yuborish kerak edi. Bu taomilga ko'ra bemor sog'ayib ketishi kutilardi. Bobur ham farzandi uchun o'z jonini sadaqa qilmoqchi bo'lgan holati juda aniq tasvirlangan.

Boburning vasiyatiga ko'ra taxt masalasi temuriylar an'anasiga binoan hal qilish lozim bo'lgan. Bu udumga ko'ra davlat boshlig'i vafot etgach, uning mulki farzandlar o'rtasida taqsimlab berilishi lozim edi. Lekin, Humoyun uchun bu udumni amalda tadbiiq qilish oson kechmadi. Otasining "ukalaring jazoga loyiq ish

qilsalar ham, ularga qarshi chora ko'rmagin", degan vasiyati uning quloqlari ostida muttasil jaranglab turardi. Haramdagi begimlar ham bu fikrni qo'llab quvvatlab turar edilar.

Babur had laid down that his affairs should be settled in accordance with Timurid custom by which, when the head of a clan died, his lands were parceled out among his sons. Almost, at once, Humayun was in difficulties with this Timurid decision, but he had given Babur his promise to 'Do nothing against your brothers, even if they deserve it which was strongly endorsed by the ladies of the haram. [14,70-bet]

Bobur o'lishidan avval taxt vorisi Humoyunga vasiyat qilib ketgan edi. Unga ko'ra o'z jigarlarni har qanday holatda ham jazolamasligini buyurgan edi. Ushbu vasiyatni Humoyunmirzo to o'limiga qadar ado etishga harakat qilgan.

Gulbadan Mohim begim tarbiyasida voyaga yetgani uchun uning hatti-harakatida begimning ta'siri sezilib turardi. Shu bois, tarbiya qilgan onasining vafotidan keyin o'zining tuqqan onasi, opa-singillari uni qanday qabul qilisharkin? Ana shunday o'y-fikrlar Gulbadanga tinchlik bermas edi. "Ikki yoshligimdan onam hazratlari meni o'z uylariga olib tarbiyalagan edilar. Men o'n yashar ekanligimda u kishi vafot etdilar", deb yozadi Gulbadan.

Gulbadan had grown used to Maham's ways and understood her and, too, was probably not sure how, after all these years of favouritism, her own mother and sisters would receive her. "I was two years old when My Lady took me and ten when she departed this life.[14,72-bet]

Gulbadanning dunyoga keltirgan onasi boshqa bo'lsa ham ikki yoshidan boshlab malika Mohim begim tarbiyasida bo'lgan. Begim vafot etgandan so'ng Gulbadan ancha iztirobda qolib ketdi. Chunki, uning har bir harakatida Mohim begimning yurish turushi sezilib turar edi.

Mohim begimning qat'iy talablaridan halos bo'lgan o'smir yoshidagi Gulbadan endi o'zining yuvosh va ko'ngilchan onasi Dildor begim huzurida, muloyim va bag'rikeng ammasi Honzoda begim tarbiyasida edi. Podshox akasi Humoyun esa muntazam ravishda ularni ziyorat qilgani kelib turar edi.

Freed from the demands of Maham, Princess Rosebody, in her teens, had only her gentle mother and Khanzada, calm and reassuring, to rule over her. Her royal brother came and went.[72-bet]

Mohim begim o'zini tutishda malikalarga hos odatlarni yaxshi bilar edi. Hususan ushbu talablarni tarbiyasiga olgan qizi Gulbadan begimdan qat'iy talab qilar edi. Bunday tartib-intizomlar unga sal qiyinchilik tug'dirar edi. Uning vafotidan keyin o'z onasi Dildor begim oldiga brogan malika endi bu qat'iy talablardan ancha halos bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Uning yozishicha "...begimlar mardona kiyimlarni kiyar va chavgonbozlik, tirandozlik kabi har xil hunarlarga usta bo'lib, musiqa asboblaridan ko'pchiligini chalar edilar".

In her writing Begams wore men's clothes had unusual accomplishments for women; not only archery and the making of thumb-rings and arrows, but these two played polo and went shooting.[72-bet]

O'sha davrlarda ham shohning ayollari o'zining boshqalardan ajrab turuvchi hislatlaei bilan alohida ajralib turishardi. Saroy ma'naviy dunyosida ularning o'ziga hos o'rnilar bor edi. Ular hatto she'riyat, musiqa san'atiga ham juda qiziqishar edi. Begimlardan ko'pchiligi musiqa asboblarini ham chalishni bilishar edi.

Ikkinchi xona "Saodat uyi" deb atalar edi. Bu uyda joynamoz, kitoblar, oltin suvi bilan oro berilgan qalamdon, chiroyli juzdon, nozik rasmlar solingan albom va xushxatlar saqlanar edi.

O'zining nazmga bo'lgan ixlosi tufayli Humoyun bu kutubxonani ko'z qorachig'idek asrar edi.

In the second called the House of Good Fortune, an oratory had been arranged, and books placed, and gilded pencases, and splendid portfolios, and entertaining picture books written in beautiful characters. Humayun, with love of poetry, attached enormous importance to his library[80-bet].

Ushbu tasvirdan shuni anglashimiz mumkinki, Humoyunmirzo o'z davrida buyuk madaniyat sohibi bo'lgan va ilm-fanga ham juda qiziqqan. U ayniqsa,

adabiyotga ixlos qo'yanligini o'z kutubxonasini ko'z qorachug'idek asrashidan ham bilishimiz mumkin.

Gulbadan yoshligida ishtirok etgan bazmlardagi kabi ushbu ziyofatda ham ichiga tuxum bilan to'ldirilib qovurdoq qilingan qo'ylar, turli shifobaxsh va xushbo'y giyohlar bilan ishlov berilib qovurilgan yoki tandirda dimlab pishirilgan do'lmalar, anvoyi hil nonlar, saryog'da dimlangan, ustiga o'ta xushbo'y qora zira sepilgan palov, yoki sutda, zafaron solib pishirilgan sariq gurunch tortilgan edi.

There would have been the same stuffed and roasted sheep as at Gulbadan's childhood feast, chicken spit-roasted with herbs or cooked in a tandoor – an earthenware oven buried in the earth: meat balls, sometimes stuffed with apricots, a choice of breads: rice cooked in a sort of butter and flavoured with fragrant black cumin-seed known as imperial cumin seed, or the rice would be coloured yellow with saffron soaked in milk.[75-bet]

Kuyovga uzatilgan qizlar, odatda, marjon va ukparpar bilan bezatilgan harir qasaba yoki lachak (ro'mol) bog'lashardi. Gulbadanning eri Humoyun saroyidagi yirik mansabdorlardan biri bo'lgan boburiylar sulolasi oldida erining nufuzi va obro'si qanday ekanini yaxshi bilardi. Hattoki Hizr Xo'jaxondan bo'lgan o'g'li Saodatyorning ismini ham faqat bir martagina tilga oladi.

Barcha musulmalar, hattoki hozir ham shu udumga amal qilinadi. Malikalar fil ustidagi mahofadan tushadigan bo'lsalar, fil chodir ichiga kiritilar va nomahram bo'lgani bois, filbonlar yuzlarini qalin mato bilan o'rab turar edilar.

As many Muslim women, even nowadays, prefer to be; even when the ladies rode on an elephant the beast was taken into a tend and the driver covered his head with a thick cloth so that he would not see them as they climbed into their howdah.[14,118-b]

Rojalar mag'lub bo'lgach, dushman qo'lida tahqirlanmaslik uchun o'zlarini o'ldirishdan avval xotinlari va bolalarini olovda yoqib yuborishar ekan. Hindlarda bundan ham daxshatli udum bor buni "saatiy" deb atashadi. Gulbadan o'zining ajdodlari bo'lmish temuriy malikalar orasida eri jangda mag'lub bo'lganda g'olib

dushmanga cho'ri bo'lishdan ko'ra o'ziga tig' tortib halok bo'lgan jasur ayollar haqida ko'p rivoyatlar eshitgan.

Customary but horrific, the ritual immolation by burning of the wives, women and children of the defeated Raja before he and his men came out to be massacred themselves. It was true that, being Hindu, therefore infidel, the women might not have been respected by Muslims.[14,123-b]

3.1-Bob Asardagi tarixiy shaxslar xarakteri tasviridagi xolislik

Rumer Godden ushbu asarni tarjima qilish jarayonida qaxramonlar xarakteri tasviri bilan ko'p o'rinlarda to'xtalib o'tgan. Asarda Boburshoh, Humoyunmirzo va Akbarshoh davrini yozilganligi sababli ushbu qahramonlarning xarakterini ko'plab o'rinlarda ochib berishga harakat qilgan. Ularning o'y-fikrlari, qilgan ishlari haqidagi ifodalarda holisona yondoshgan. Har bir qahramonning xarakterini iloji boricha aniq faktlarga asoslanib talqin qilishga erishgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Jumladan, asarning bir qismida shunday tasvir berilgan: *Humoyun juda ko'ngilchan, chetdan qaraganda, umuman aql bovar qilmaydigan darajada soddadil va ishonuvchan inson edi. Odatda, sho'rvadan og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi, deydilar. Humoyun shundan ham to'g'ri xulosa chiqarmagan edi. Masalan, u haqiqiy do'stlarim, deb hisoblagan Gujarat sultoni Bahodirshoh va afg'on sultonlaridan bo'lmish Shershohlar, aksincha, o'zining ashaddiy g'animlari ekanligini anglagach, xayratdan yoqa ushlagan edi. [14,71-bet]*

There was in Humayun an innate gentleness, a trustfulness that was too native, even for a child- a burnt child at least learns quickly to dread fire- but no Humayun; for instance, it was a shock to him when he bitterly learned that the two men he had thought of as true friends, Sultan Bahadur Shah of Gujarat, and the Afghan Sher Shah were, on the contrary, his enemies- he had to fight them again and again.

Ushbu fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, adiba qahramonlar xarakterini yoritishda holislik prinsipiga amal qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki tarixdan ma'lumki, Boburning suyukli farzandi Humoyunmirzo tabiati jihatidan juda soddadil va ishonuvchan bo'lganligi ko'plab manbalarda yoritilgan. Chunki, Humoyunning ushbu soddaligi va ishonuvchan tabiati uning saltanat boshqaruvida ko'p qiyinchiliklarga duchor bo'lishiga olib kelgan. Uning bu xarakteridan foydalangan raqiblari o'zini do'stdek ko'rsatib uni yakson qilishga urunganligi asarda juda aniq va tiniq ifoda qilingan.

Vaholanki, agar Humoyun hayot yo'lida asosiy to'g'anoq bo'lgan ikki sabab-o'zining afyunga odatlanishi va ukalarining hoinliklari bo'lmaganida edi unga omad ertaroq kulib boqqan bo'lardi.

In fact, his 'troubles' might never have arisen –had it not been for two great obstacles: the Emperor Humayun himself, his character, its weakness for opium, that and his brothers.[14,70-bet]

Humoyunning boshqaruvi davomida ko'plab muvofaqqiyatsizlikka duch kelishiga asosan ikki narsa sabab bo'lgan. Avvalgi sahifalarda Humoyunni Islom diniga e'tiqod qilishi haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan. Lekin asarning ushbu qismida Humoyunning islom dinida man qilingan afyunga berilib ketishi haqida ta'kidlab o'tilgan. Bundan ko'rinib yuribdiki Humoyun ham o'ziga yarasha salbiy hislatlarning ham sohibi bo'lgan. Bundan tashqari uning ukalari tomonidan uyushtirilgan hoinliklar uning mamlakati tanazzuliga olib kelgan

Rivoyat qilishlaricha, kunlarning birida Boburnig dushman ustiga tunda bostirib borib, raqibini uxlab yotgan joyida mahv etish imkoni bo'lsada, u dushmaniga chopar yuborib, uning g'aflatda qolmasligi uchun hujumdan habardor qilib, keyin jangga kirgan va g'olib bo'lgan ekan.

Akbar o'z hatti harakati, g'ayrat shijoati bilan bobosi Boburshoxning aynan o'zginasi edi. U jismoniy harakat talab qilinadigan mashqlardan boshqa mashg'ulotlarni xush ko'rmasdi. Qobulda turga paytida bir kuni munajjimlar shahzodaning saboq olishni boshlashi uchun ma'qul bo'lgan kunni aniqlashgach, unga saboq beradigan muallim ham tayin etildi. Biroq o'sha muborak kunda Akbarni hech qayerdan topa olmadilar.

Akbar was in many ways another Babur. He refused any kind of teaching exept in the prowess needed for sport or war; in his childhood days in Kabul when the astrologers found the auspicious hour for the little Prince to begin lessons, the royal pupil – God's scholar; Abul Fazl mistakenly calls him-was nowhere to be found; he had gone sporting.[14,107-b]

Asarda Akbarni ham ijobiy ham salbiy qahramon sifatida tasvirlangan. Chunki Akbarshoh ba'zi xarakteri bilan bobosi Boburshohning g'ayrat, shijoatini eslatib tursa. Ba'zi o'rinlarda uning shafqatsizligini ham kuchli ifoda qilingan.

O'zini "haqir" deb bilgan Gulbadan uchun ortiqcha sarf harajat talab qiladigan bunday dabdabalar birmuncha erish tuyular edi. Biroq bularning barchasi podshoh naslining aslzoda mavqeini ta'kidlash, hukmdorni hurmat qilish lozimligini anglatish uchun qilinardi. Bunday dabdabalar qurshovida bo'lsa ham Gulbadan o'zini "nomahramlar nazaridan pinhon" saqlashi darkorligini yaxshi tushunar edi.

Gulbadan was used to display those feasts of Humayun, it didn't fit with Gulbadan's idea of herself as 'lowly' but it was for the royal dignity and it must be remembered that she was always 'behind the screen', as many Muslim women, even nowadays prefer... [14,119-b]

Shu o'rinda asarning asosiy qahramoni Gulbadan begim xarakteriga to'htalib o'tmoqchimiz. Gulbadan begim garchi shoh qizi bo'lsa ham o'zini kamtarin hislatlari bilan alohida hurmatga ega ayol bo'lgan. U o'zini doimo haqir, bechora, mushtipar bilar edi. U dabdabalarni uncha xush ko'rmas, oddiylikni yaxshi ko'radigan ayol bo'lgan. O'z diniga e'tiqodi baland bo'lgan Gulbadan o'zini doim nomahramlar nazaridan saqlab yurar edi.

Akbarning qalbida ham Boburning jasorati bor edi. Bolaligida u quturgan tuyalarga minaman, deb enagalari va tan qo'riqchilarini qo'rqitar edi. Kunlarning birida yayov holda bir yo'lbarsning oldidan chiqib qolganda o'zini yo'qotmay unga qarshi shiddat bilan tashlangan edi. G'animlar bilan keskin yuzma-yuz jang ketayotgan bir paytda u o'zining jangchi fili bilan bezorilar yashiringan uyning sadog'ida beshtagina o'q bor edi holos.

Akbar had the courage of Babur too. As a child he had terrified his nurses and guards by insisting on riding fierce smells; he had once faced a tiger on foot and, in a skirmish, driven his war elephant through the wall of a house where candits were entrenched, getting five arrows in ahis shield: [14,120-bet]

Bobosi Boburdek jasorat sohibi bo'lgan Akbarshoh Bolaligidan qo'rqmas bo'lgan edi. Ushbu asarda bu qo'rqmasligidan hattoki yirtqich hayvonlar bilan ham jang olib berilgani namoyish qilingan. Hattoki o'q qiroli tugab qolsa ham g'animlar bilan yuzma-yuz jang qila olgani uning shohlarga hos botirligidan dalolat beradi.

Akbar faoliyatida ba'zi shafqatsizliklar alomati ko'zga tashlanib turadi. Abufazlning yozicha, Akbar o'rgimchakning xashorotlarni o'z to'riga ilintirib tutib olishi va keyin ularni yeyishidan zavqlanar yoki qurbaqalarning og'zidan chiqqan tupugi chumchuqni halok qilishi mumkinligini bilib olgach, ularni bir-biriga qarshi qo'yib, gij-gijlar ekan. Akbarning fe'l atvoridagi bunday salbiy jihatlarni oqlash uchun so'z topishga ojiz qolgan Abulfazl bosiqlik bilan, "keling, endi boshqa mavzuga o'taylik"-deb o'quvchi e'tiborini bu nomaqbul holatdan chetga burardi.

There was a curiously sadistic trait in Akbar: Abul Fazl tells how he delighted in watching a spider catch, entangle and eat flies; how, when he discovered that frogs could kill sparrows by the froth they spewed out, he used to set them at one another, for which even Abul Fazl's fulsomeness could not find an excuse and so he wrote tactfully, 'Let us pass on to another subject'. [14,122-b]

Asarda Akbarshoh shafqatsizligini kuchaytirish maqsadida uning hattoki ona tabiatdagi hashorotlarning qarshi qo'yishida namoyon bo'ladi. Akbar haqida doimo yaxshi fikrlarni yiozgan va maqtovlarga ko'mgan Abufazl bunday hislatlarini berkitishga harakat qilgan.

Akbarning go'sht iste'mol qilishni yoqtirmay qolgani, oylab go'sht yemagani, ro'za paytidagi iftorlikda esa birinchi kosa ovqat onasi Hamidabonu begim uyidan keltirilgani haqida hikoya qilinadi. Muallifning yozishicha, Jamna daryosi orqali qayiqda saroyga har kuni muz keltirdilar, suvni esa Akbar hindlarning odatiga ko'ra, faqat shu daryodan oldirib ichardi. Bunday odatlar Akbar faoliyatida tobora ko'proq ko'zga tashlanib turar edi.

Akbar disliked meat so that for months he would go without it but, when he consented to break his fast, the first dishes were always brought from his mother,

Hamida's house; how boatload of ice was brought down the Jamna for the place every day; how Akbar never drank anything but Ganges water, a Hindu custom, of which there was to be more and more. [14,130-b]

Akbar yana tabiatan juda injiq bo'lgan. Bu injiqligi uning hatto taom istemol qilishida ham namoyon bo'lgan. Ro'za paytida birinchi ovqatni onasining qo'lidan yeyishi esa onasiga bo'lgan bolalarcha mehrini namoyish qilinadi. Bu ma'lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki Akbar xarakteri jihatidan juda murakkab va tushunish qiyn bo'lgan hukumdor bo'lgan.

Adiba ushbu asarning ko'plab o'rinlarida, qahramonlarga bo'lgan xolislik juda to'g'ri va yaqqol ifodalangan.

3.2-Bob. O'zbek tilidan ingliz tiliga qilingan tarjimalarda realiyalar va lingvokulturalagik birliklarni tarjima qilishga o'rgatishga doir tavsiyalar va yangi pedagogik texnologiyalar.

Bugungi kunda respublikamizda tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan hisoblangan tarjimaning lingvokulturologik usuli va realiyalardan foydalanish haqida tilshunoslik sohalarida ko'pgina tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda biror bir asar tarjima qilinganda ko'plab muammolarga duch kelinmoqda. Chunki, har bir xalqning urf- odati va o'ziga hos milliyligi mavjud. Shuning uchun bir davlat tilida mavjud so'zni ikkinchi davlat tilida uchratish qiyindir. Sababi, asliyatdagi asarni tarjima tiliga o'girishda ularning tarjima tilida muqobillari bo'lmaganligi tarjimonga bir oz qiyinchilik tug'diradi. Bunday holatda qiyoslanayotgan tillarda so'zlovchi , yozuvchilarning hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ularning madaniyati ham bevosita aks etgan. Bunday asarlarning mana shunday lingvokulturologik jihatlari tarjimada ham o'z aksini topishi lozim. Aks holda, tarjima to'laqonli chiqmaydi va bu yerda o'ziga hos lingvokulturologik semantik yo'qotishlar ham kuzatiladi. Tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari ham xalqaro munosabatlarni o'rganish, uning bugungi holatini tahlil qilish va rivojlanish istiqbollarini belgilashga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda har bir xalqning asarlarini o'rganish uning madaniyatini o'rganish bilan bog'liq, bu esa davlatlararo hamjixatlik taraqqiyoti uchun hizmat qiladi.[6, 204-b]

Yana shunday muhim yo'nalishlardan biri tarjimada realiyalardir. Bu esa tarjimashunoslikda eng katta muammolardan hisoblanadi. Bu jarayonda, bir tilning o'ziga xos urf-odatlaridan kelib chiqib o'sha tilda shunday so'zlar borki u kabi so'zlarni boshqa tilga tarjima qilib bo'lmaydi. Chunki, boshqa tillarda u kabi tiplik ya'ni o'ziga hos milliy urf- odatlari yo'q bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tarjimon juda qobilyatli yoki ustamon bo'lishi kerakki o'sha so'zni o'zga millatga yetkazib berishda xatolikka yo'l qo'ymasligi kerak va o'sha so'z o'z ma'nosini saqlab qolishi muhimdir. Bunda, berilgan so'zni tushuntirish davomida boshqa

tildagi shunga ma'nosi yaqin bo'lgan so'zni berish kerak yoki tasviriy ifodalar bilan ta'riflab o'tiladi.

Ko'plab yozuvchi va tarjimonlar asarlarni tarjima qilishda bunday jarayonlardan mahorat bilan foydalanishgan. Shunday yozuvchilardan biri Ingliz adibasi Margarit Rumer Godden " Gulbadanbegim" asarini tarjima qilish jarayonida atoqli otlar, ismlar, shaxarlar, daryolar nomlarini ko'p o'rinlarda tarjima qilishga to'g'ri kelgan. Albatta, bu o'rinda tarjimashunoslikda muhim rol o'ynagan tarjimaning lingvokultrologik jarayoni va realiyalardan unimli foydalangan. Biz bilamizki, tarjima jarayonida atoqli otlar, ismlar, shaxarlar, va boshqa joy nomlarini o'girish juda katta qiyinchilik tug'diradi. Ularni tarjima qilish esa haligacha muammo kasb etmoqda. Buning asosiy sababi tarjima qilinayotgan tilning tarjima qilayotgan tildan farqlanishi va har bir tilning o'ziga xoslik tomonlari borligi bilan ajralib turadi. Albatta, biror asar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda, o'sha tilda so'zlovchi davlatning o'ziga xos madaniyati, til nutqidagi talaffuzi bilan juda katta farqlanadi, bunday o'ziga xoslik esa atoqli otlar tarjimasida muammo keltirib chiqarishi tabiiydir. Chunki, badiiy asarlar tarjima qilishda atoqli otlar to'laligicha tarjima qilinmay talaffuzga qarab ma'lum bir qismigina tarjima qilinadi xolos. Ushbu asarning tarjimasi o'laroq adiba ana shunday muammolarni bartaraf qilishga katta hissa qo'shgan. Fikrimiz isboti uchun ushbu asardan olingan ba'zi misollarga to'xtalib o'tamiz. Masalan, asarda ko'p bor duch kelingan Bobur ismini Babur deya tarjima qilingan. Bu o'rinda "o" qattiq unlisi , o'z o'rnini "a" qattiq unlisi bilan o'zgartirgan. Ismlardan yana "Gulbadan begim" ismi " Gulbadan begam" tarzida o'zgaradi. Joy nomlaridan "Qobul" so'zi esa "Kabul" deya, ingliz tilida "q" undoshi yo'qligi sababli "k" tarzida tarjima qilingan. Yana shunday atoqli otlardan "Qandahor" so'zi "Kandahar", "Hindu Qush" so'zi "Hindu Kush" kabi tarjima qilingan. Ingliz tilida "g" undoshi yo'qligi sababli esa uning o'rniga "g" undoshidan foydalanilgan. Masalan, "G'oz" so'zi "Ghazi", "Afg'on" so'zi esa "Afghan", "Mo'g'illar" so'zi esa "Mughals" kabi tarjima qilingan. Yana shunday xarflardan qattiq "x" xarfining yo'qligi sababli esa uning o'rniga " kh" xarfiy birikmani qo'llanilgan. Masalan,

“Gulrux” soʻzi “Gulrukh”, “xon” soʻzi “khan”, “Umarshayx” soʻzi “Umarshaikh”, “Shayboniyxon” soʻzi “Shaybani khan”, “Xonzoda” soʻzi “Khanzada” kabi “Badaxshon” soʻzi esa “Badakhshan”, “Shoh Jahongir Xizr Xoʻja” esa “Jahangir shoh Khizr Khoja” “Sher xon” esa “Sher Khan”, “Xurram” soʻzi “Khurram”, “Xusrav” soʻzi esa “Khusrav”, “Farrux” soʻzi “Farrukh”, “Xoʻjand” soʻzi “Khujand” kabi tarjima qilingan. Baʼzan harflar oʻrni almashunuvi yaʼni metateza hodisasini ham kuzatishimiz mumkin. Bunga misol qilib “Dehli” soʻzini “Delhi” kabi tarjima qilinganini berishimiz mumkin. Baʼzan esa “a” unlisi oʻrniga “u” unlisini qoʻllanilganini koʻrishimiz mumkin. Bunda “Jamna” soʻzi “Jumna”, “Panjob” soʻzi “Punjab” kabi tarjima qilingan. Yana baʼzi soʻzlarda harf orttirilishi ham kuzatiladi: “Himalay” soʻzi “Himalayan”, “Fors” davlati esa “Persia” kabi tarjima qilingan. “E” unlisining oʻrniga esa “i” unlisi qoʻllanilgan “Gulchehra” soʻzi “Gulchihra”, kabi tarjima qilingan. “Kohinur” soʻzi “Kuhinoor” kabi tarjima qilingan, chunki, Ingliz tilida ikkita “oo” unlisi “u” kabi talaffuz qilinadi. Agar uning oʻrniga “u” harfini qoʻyilganda uni yopiq boʻgʻinda “a” talaffuz qilinganligi sababli tarjima biroz real holatini yoʻqotgan boʻlar edi va “Koʻhinur” soʻzi “Kuhinar” deya talaffuz qilingan boʻlar edi. Bundan tashqari soʻzlar oʻrni almashunuvi ham kuzatilish mumkin. “Yor Muhammad” soʻzi “Muhammad Yar” kabi tarjima qilingan. “F” harfining oʻrniga “ph” harf birikmasini ishlatilgan: “Rudolfo” soʻzi “Rudolpho” kabi tarjima qilingan. Baʼzan “g” jarangli undoshi oʻrniga “k” jarangsiz undoshi qoʻllanish hollari ham kuzatilinadi “Ummi-Gulsum” soʻzi “Umm-Kulsum” kabidir. Shuningdek, “v” undoshi oʻrniga “u” unlisini oʻzgartirib tarjima qilinganligi kuzatilinadi. “Javhar” soʻzi “Jauhar” kabidir. Yana soʻzlar bir oz qisqarilishi ham kuzatiladi. Masalan, “Musilmon” soʻzi “Muslim”, “Bengaliya” soʻzi esa “Bengal” kabi tarjima qilingan. Bundan tashqari “x” undoshi oʻrniga “ch” harfiy birikmasini qoʻllanilgan. “Xiristian” soʻzi “Christian” kabidir. Yana, “Dildar” soʻzi “Dildar” “Mohim” soʻzi “Moham”, “buddaviylik” soʻzi “Buddhist” deya tarjima qilingan.

Adiba baʼzi joylarda kichik xatolar qilganligi ham kuzatiladi. Masalan, “Temurland” soʻzi “Tamerlane’s” “Temuriylar” soʻzi esa “Temurid” kabi tarjima

qilingan. Lekin, bunday xatolar unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Nima bo'lganda ham yozuvchi Rumer Godden "Gulbadan begim" asarining tarjimasi bilan, tarjimashunoslikda tarjimaning linguokulturologik jarayoni va realiyalardan foydalanishdagi muammolarni yechishga o'z hissasini qo'shgan.

Yuqorida tahlil qilib o'tilgan ma'lumotlardan foydalanib ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir maktab, akademik litsey, kollej va boshqa bilim yurtlarida til o'rgatayotgan har bir pedagog avvalo, tarjima qilish sirlarini ham o'rgatish zarurdir. Chunki til o'rgatishning asosiy jihati bu tarjimadir. Xozirda undan tashqari, jahon miqyosida kechayotgan eng dolzarb masalalardan biri tarjimadir. Ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratgan holda tarjimaning lingvokulturologik va lingvodidaktik tomonlarining nazariy asoslarini ishlab chiqish uning amaliyotga tadbiiq qilish samaradorligini oshiruvchi omillardan hissoylanadi. Tarjimaning lingvodidaktik hususiyatlari haqida so'z yuritganda, uning chet tili o'qitish va o'rganish vositasi sifatidagi funksiyasini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ushbu masala bugungi kundagi chuqurroq o'rganilishi kerak bo'lgan masalalardan hissoylanadi, chunki tarjimadan o'qitish va o'rgatish vositasi sifatida foydalanishga qaratilgan o'quv jarayonlarining loyihalarini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, texnik vositalar va o'qitish texnologiyalaridan foydalanishga oid metodik ishlanma va ko'rsatmalar yaratish ham o'quv jarayonida tarjimadan maqsadli foydalanish samaradorligini oshiradi. [7,261-b]

Ushbu yuqorida aytilganlar tarjimadan chet tili o'qitish vositasida foydalanganda, tarjimondan realiyalarni hissobga olgan holda tarjimini amalga oshirish talab etadi. Bu, ayniqsa, og'zaki tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunda so'zlovchilarning emotsional holati ham nutq ohangida o'z aksini topadi.

Avval, shuningdek hozirda ham, tarjima chet til o'qitish jarayonida keng qo'llanilmoqda. Tarjimadan chet til o'qitish vositasi sifatida foydalanilganda ikki usulga e'tibor berishimiz kerak. Birinchisi, chet tilidan ona tiliga tarjima, ikkinchisi ona tilidan chet tiliga tarjima. Chet tilidan ona tiliga tarjima qilish til o'rganuvchi uchun bir oz osonlik tug'diradi. Chunki unda tarjima qilinayotga tilning ona

tilidagi muqobilini topish osonroq, sababi til o'rganuvchida shu so'zning ma'nosini beruvchi sinonim so'zlardan foydalanish yoki uni ona tilidagi boshqa so'zlar yordamida izohlab berish imkoniyati bor. Ona tilidan chet tiliga tarjima qilinganda esa, til o'rganuvchining chet tilidagi so'z boyligi kam. Shuning uchun ham u lug'at yordamida tarjima qilishni afzal ko'radi, sababi lug'at boyligining kamligi uning chet tilida fikrni izohlab berish imkoniyatini chegaralab qo'yadi. Shuning uchun ham tarjimadan chet tili o'qitish vositasi sifatida foydalanilganda avval gaplarni chet tilidan ona tiliga, so'ng esa aynan o'sha gaplarni ona tilidan chet tiliga tarjima qilish mashqlari samarali hisoblanadi. Ular nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beribgina qolmay, til o'rganuvchilarda o'rganilayotgan chet tiliga nisbatan motivatsiyani ham shakllantiradi. Ayniqsa tarjima mashqlari didaktik o'yinlar orqali ma'lum bir nutqiy vaziyatga mos holda o'tkazilsa, ular yanada samaraliroq bo'ladi. [7,264-b]

Xorijiy til o'qitishdagi zamonaviy texnologiyalar hususida so'z yuritishdan oldin "texnologiya" atamasining mohiyatini aniqlab olishimiz lozim. "Texnologiya" so'zi yunon tilidagi "techne" so'zidan olingan bo'lib, u "mahorat", "san'at" ma'nolarini anglatadi, "logos" esa "so'z", "ta'limot" demakdir.

Hozirda keng qo'llanilayotgan pedagogik texnologiya esa ingliz tilidagi "Educational technology" so'zidan olingan bo'lib, u ta'lim texnologiyasi demakdir.

Yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishdagi yangicha zamonaviy yondashuv xorijiy til o'qitishning maqsadini o'quvchilarga bilim berish va ma'lum nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagina emas, balki shu bilan birga o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, o'rganilayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchaytirish, ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchni hosil qilishni ham o'z ichiga oladi. Ma'lumki ta'lim jarayoni murakkab va shaklan turlichadir. Xorijiy til darslarida yangi o'quv materialini prezentatsiya (taqdimot, yangi o'quv jarayoniga kiritilishi), uning turli mashqlar orqali mashq qilinishi va turli nutqiy vaziyatlarga mos qo'llash orqali tegishli nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Xorijiy til o'qitishdagi samarali usullardan biri "aqliy hujum" yoki "fikriy hujum" usulidir. Mazkur usul o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishlarini rag'batlantirish hamda bir hil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan xar hil g'oyalar to'plash, shuningdek, ijobiy vazifalarni hal etish va ularni yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan muammolarni hal qilishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Bu usul A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti bahsning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo taqiqlash, har qanday luqma va xazil mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchining mashg'ulot davomida erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ushbu metoddan samarali foydalanish o'qituvchiga bog'liqdir.

"Aqliy xujum" uslubidan foydalanib mashg'ulotlar tashkil qilinganda o'rganuvchilar tashkil etilgan muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladilar, vaziyatdan chiqib ketishning turli yo'llarini o'ylab topadilar, bu esa ularning faollashuviga olib keladi. Har bir o'rganuvchining bergan javobi qabul qilinadi. Javoblar to'g'ri, noto'g'ri yoki aniq javobga yaqin bo'lishi mumkin. Asosiysi, har bir o'rganuvchidan o'z javobini asoslashi, himoya qilishi so'raladi. Bu usulni o'tilgan, o'rganilgan mavzuni takrorlash paytida ham qo'llash maqsadga muvofiq. "Aqliy xujum" uslubini mashg'ulotning har bir qismida qo'llash mumkin. Bu usul to'g'ri qo'yilsa o'rganuvchilarning o'ylashga xozirjavoblikka o'rgatadi. Bu usul qo'llanilganda nafaqat o'rganuvchi, balki o'rgatuvchining o'zi ham faol bo'lishi talab etiladi.

"Aqliy xujum" uslubini qo'llashdan quyidagi natijalar kutish mumkin:

- darsda o'rganuvchining faolligi ortadi;
- har bir o'rganuvchi xorijiy tilda olgan bilim va ko'nikmalarni ko'rsatish uchun, o'z fikrini bayon etishga harakat qiladi;
- o'rganuvchilarning xorijiy tilga qiziqishi ortadi.

Ushbu usuldan foydalanib xorijiy tilni o'rgatishda o'rganuvchilarning nutqi rivojlanadi, o'rganilgan mavzular mustahkamlanadi, pirovard natijada o'rganuvchilar erkin fikrlarini yurita olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Yangi pedagogik texnologiya ta'limning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalarning mahsulidir. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat maktablarda o'qituvchi dars jarayonida faqat o'zi ishlaydi, o'quvchilar esa "kuzatuvchi" bo'lib qolaveradi. Ta'limning bunday shakli o'quvchilarning aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, aksincha ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so'ndiradi.

Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o'qitish tizimida o'qituvchi o'rniga o'quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqishdir. Biz o'quvchilarni o'quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan, avtomatik tarzda takrorlanishidan uzoqlashtirib, ularni mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishimiz hamda o'quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylantirishimiz kerak.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida berilgan darslar o'quvchilarni muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildira oladigan, o'z fikriga ega bo'lishga va o'z nuqtai-nazaridan asoslab berishga o'rgatadi.

Tillarni o'qitish jarayonida matn ustida ishlash muhim ahamiyatga egadir. Matndagi so'zlarning ma'nosini tushuntirish, mazmun mohiyatini anglatish o'qituvchining vazifasidir. O'zlashtirilgan so'zlar ustida mustaqil ishlay olish o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijiy tillarni o'qitishda matn ustida ishlashning sifat va samaradorligini oshirishda interfaol usullardan imkon darajada foydalanish o'quvchining til o'zlashtirishida yaqindan yordam beradi.[6,100]

Avvalo, o'quvchilarga tarjimani o'qitish jarayonida, biror-bir badiiy asarni misol qilib olib, uning ichidan biror matnni tanlab olish kerak. Bunga misol qilib o'rganilayotgan asarimiz "Gulbadan begim" asaridan foydalanishimiz mumkin. Asarning ichidan ma'lum bir matnni tanlab olamiz va shu matnni tarjima qilishga vazifa qilib beramiz. Bu jarayonda o'quvchilarga bitta-bittadan gaplarni bo'lib

berishimiz mumkin. Ma'lum vaqtni belgilab kimning tarjimasi yaxshi chiqadi deya musobaqa qildiramiz. Vaqt tugagach navbatma-navbat matnlarni zanjir holatda uzviy bog'lab ketishadi. Dars so'ngida esa xato kamchiliklarni tushuntirib o'tsak tarjima qilishni o'qitishda samarali natija beradi.

Mashqlardan namunalar:

1. Quyidagi asardan berilgan parchadan foydalanib atoqli otlarni ajratib chiqing va O'zbek tiliga tarjima qiling:

The eldest was Rose-Coloured, the second was Rosy-Cheeked, another of Babur's wives was Rose-Faced and one of his slave girls, a Circassian, who was to be Gulbadan's friend all her life was 'Red Red Rose' but Gulbadan-Rosebody was 'rose' through and through as her name impert. Indeed, it might have been of her that the poet Hafiz was thinking when he wrote that 'rose' is the colour sincerity. ("Gulbadan".M.R.Godden)- Ushbu mashqni akademik litsey, yoki, kasb-hunar kollejlarda qo'shimcha adabiyot sifatida qo'llashimiz mumkin.

2. Berilgan gaplarni tarjima qiling va ketma-ketligini to'g'rilab chiqing.

Now, when illness has laid me low, I charge you all to acknowledge Humayun in my stead. " For years it has been in my heart to make over my throne to Humayun Mirza and to retire to the Gold-Scattering Garden. The Emperor Humayun broke down again when he saw his father's condition worsen'-already Gulbadan was calling him, Humayun, the Emperor. Gulbadan had need of 'the Smiling One, because, her Majesty's disorder of bowels increased. He called his chiefs together and spoke after this wise: Day by day her Majesty lost strength and became more and more emaciated. Every day the disorder increased and his blessed countenance changed. By the Divine grace I have obtained all things but the fulfillment of this wish in health of body.

3. Ushbu berilgan asar parchasidan "realiya"larga hos birliklarni toping.

Khizr Khwaja Khan, Gulbadan's husband, had been appointed by Akbar as Governor of Lahore, but there seems to have been no question of her leaving the Court to join him as were rebellions in the Punjab; in fact, Khizr Khwaja was defeated and recalled. He is mentioned again as giving horses to Akbar and was

with the Emperor when Akbar was hurt in a foray-it was the Khan who bound up the wound- but after this episode there is no further word about him and little of Gulbadan either until she made the pilgrimage of the Haj, but that span of her middle age spent quietly as a wife, widow, mother, grandmother was still women closely with the Court. ("Gulbadan" M.R.Godden)

4. Berilgan matnning tarjima qilib, sharq madaniyatiga hos bo'lgan "lingvokulturalogik" birliklarni toping.

There would have been the same stuffed and roasted sheep as at Gulbadan's childhood feast, chicken spit-roasted with herbs or cooked in a tandur-an earthenware oven buried in the earth: meat balls, sometimes stuffed with apricots, a choice of breads: rice cooked in a sort of butter – and flavoured with fragrant black cumin-seed or the rice would be coloured yellow with saffron soaked in milk. ("Gulbadan" M.R.Godden)

5. Berilgan she'rni o'zbek tiliga tarjima qiling.

' O soul at peace, return unto they Lord,

Well- pleased, well- pleasing!

Enter thou among My servants!

Enter thou My Paradise!

("Gulbadan" M.R.Godden)

Ushbu yuqorida berilgan mashqlar akademik litsey, kasb xunar kolleji va maktabda 9-sinf o'quvchilari uchun moslangan. Ularni Ingliz tilini yanada chuqurroq o'rganishi uchun ushbu tarjimaga oid mashqlar samarali natija beradi. Ushbu berilgan misollar yanada ta'lim sifatini oshirish uchun qo'l keladi deya umid qilamiz . Pedagoglarimizga yuqoridagi mashqlar na'munasidan andoza olib o'qitish tizimida qo'llashni tavsiya etib qolamiz.

Xulosa

Bitiruv malakaviy ishimiz mazmunida zamonaviy ingliz adabiyotidagi ko'zga ko'ringan adiblardan bo'lgan Margaret Rumer Godden ijodida boburiylar sulolasi va saroy ma'naviy dunyosini yoritib berilishi, ularda obrazning o'ziga hos jihatlarini aks ettirilishi yuzasidan keng qamrovli ilmiy kuzatishlar olib bordik. Olib borgan kuzatishlarimizning amaliy natijalari sifatida quyidagilar xulosa qilindi.

1) R.Godden hayot faoliyati Hindiston bilan bog'liq bo'lganligidan hayoti davomida adibaning sharq madaniyati,urf-odatlar va tarixi yuzasidan to'plagan ma'lumotlari uning ijodida sharq motivlarini yoritilishiga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rsatib turadi. R.Godden dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabatiga ko'ra o'z ijodida romantik tendensiyalarni ilgari surgan bo'lib,asar voqealarining ta'sirchan,ichki tuyg'ularga boy qilib tasvirlagan.

2) Yozuvchi ijodida nafaqat badiiy asarlar balki tarixiy-etnografik va ilmiy-ommabop janrdagi asarlar ham ko'p uchraydi. Bu janr uning hayoti davomida to'plagan ma'lumotlari ifodasi bo'lib, uning ijodida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning to'plagan materiallari va hayotiy tajribasi bu asarlar uchun muhim manba bo'lib,hikoyalar ketma-ketligini to'g'ri tanlanishi va o'qilishi ularning manaviy kamolotga yetishishlarida katta rol o'ynaydi. Jumladan, uning "Ertaklar haqida ertak" ,(The Tales of the tales: Beatrix potter Ballet,1971) va boshqalar shular jumlasidandir.

Tarixiy-etnografik asarlar borasida eng mashhur asari sifatida tadqiqotlarning bevosita obyekti bo'lgan "Gulbadan: Atirgul nomli Mo'g'il malikasi suratiga chizgilar " (Gulbadan: Portrait of Rose Princess at the Mughal Gourt, 1980) asarini kiritishimiz mumkin. Ushbu asar 2005-yili X. So'piyeva tomonidan "Gulbadanbegim" nomi bilan tarjima qilingan bo'lib, Hindistonda uch asrdan ortiq hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasi vakillaridan biri malika Gulbadanbegim hayotini yoritib beradi.

Yozuvchining mazkur asarlari orasida eng avvalo avtobiografik xarakterga ega bo'lgan " Hindiston quyoshi ostidagi ikki kishi" (Two Under Indean Sun,1966) "Yig'lamoq emas, quvnamoq davri" A Time to Dance No time to

Weep,1987) va “ To’rt xonali uy” (A House with Four rooms; 1989) kabi romanlarini keltirishimiz mumkin. Ularda asosan adibaning bolalik yillari tasvirlangan bo’lib, bevosita Hindistonda bo’lib o’yan voqealar bilan bog’liq. Qolaversa yozuvchi keyingi hayotini ham mufassal yoritib bergan bo’lib, bu davrlarning tasvirlashda unga o’z singlisi Jon Godden yordam bergan. Ularning hamkorligi uzoq davom etgan bo’lib, hammualliflikda “Shiva kabutarlari” (Shiva’s Pegeons,1972), “Marhumlar” (Gone: A third of Stroies,1968) va “ Hindiston to’foni” (Indian Dust,1989) kabi romanlarni yozgan. Etnografik asarlar to’g’risida gap ketganda R.Goddenning missionerlar va rohibalar hayotini tasvirlovchi “Shiva kabutarlari”, “ Farishta arslonlar” (Butterfly Lions,1978) “Bida uyi” asarlarini ham kiritishimiz mumkin.

3) Mazmun –mohiyatiga ko’ra bu tarixiy-etnografik asar bo’lib, go’yoki Gulbadanbegim o’z esdaliklari shaklida yozilgan. Asarda Gulbadanbegimning tug’ilganidan to hayotining so’ngi damlarigacha bo’lgan davri tasvirlangan. Asardagi voqealar asosan, Afg’oniston va ko’proq salmog’i Hindistonda bo’lib o’tadi. Undagi voqealar asosan Gulbadanbegim davrida hukumronlik qilgan uch hukumdor Shoh Bobur, Humoyunmirzo, hamda, Akbarshoh davridagi voqealarni o’z ichiga oladi. Asardagi bosh qahramon Gulbadan begim hisoblanib xususan, uning tevarak atrofidagi bo’lib o’tgan turli xil voqealar, janglar va ular xarakteri haqidagi tasvirlarni o’z ichiga oladi. Gulbadan garchi shoh qizi bo’lsa ham uning hayotida ko’p qiyinchiliklar boshidan o’tgan. Ana shu irodasi bilan har qanday qiyinchiliklarni yenga olgan. Shunday yetuk hislatlari bilan Gulbadan oqila va dono bo’lganligini asar mutoolasi davomida bilib olishimiz mumkin.

4) R. Goddenning “Gulbadan begim” asari tarixiy –etnografik asar bo’lganligi bois, unda Hindiston tarixi bilan bog’liq voqealarni yoritib berish bilan bir qatorda turli hind xalqining urf-odatlarini haqida ham batafsil ma’lumot berilgan. Asarda bundan tashqari saroyda yashaydigan bolalar hayoti ham yoritib berilgan bo’lib, ularning ta’lim olishlari va vaqt o’tkazishlari yuzasidan quyidagi tarzda ma’lumotlar alohida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi hech bir tarixiy manbalarda bunday to’liq ma’lumot berilgan emas.

5) Gulbadan begim xaqidagi asarda turli davrlarda sodir bo'lgan tarixiy voqealar xususida ham fikrlar bildirilgan bo'lib, ularda ham muallifning xolislik prinsipi o'z aksini topadi. Bu ma'lumotlarning ko'pchiligi tarixiy solnomalarda tushurib qoldirilgan bo'lib ular bevosita malika Gulbadan nuqtai –nazaridan berilayotganligi bois ancha to'liq ma'lumotlar hissoblanadi. Asarda holislik Boburning hind malikasi tomonidan zaxarlanishi fojeasi bilan bog'liq voqealarni yoritishdan ham yaqqol ko'rinadi. Aybdorlarga jazo tayinlanishida Bobur mirzo sahovatpesha bo'lishiga qaramay o'rta asrlarga xos yaxshiylik bilan amalga oshirilganligini ko'rsatib berilgan.

6) R.Godden bolalik damlaridan beri Sharq madaniyati bilan tanish bo'lganligidan unga nisbatan hurmatda bo'lgan. Keyinchalik ham bu hurmat extiromi yo'qolib ketmay, yozuvchining asarlarida bevosita majoziy tarzda ko'rsatib berilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak adiba o'z asarlarida sharq madaniyati va ayniqsa sharq ayoli siymosini o'ziga hos etalon ravishda asarlari qahramoniga aylantirgan. Sharq ayoli obrazi sifatida yozuvchi “muslima ayolni” ifoda qiladi. Chunonchi Kashmirda o'tkazgan hayoti davomida aynan islom madaniyati ta'sirida bo'lgan. Ayol obrazi eng avvalo o'z eri va oilasiga sadoqatli bo'lishi sifatida gavdalanadi.

7) Shunday qilib adiba boburiylar hayoti va saroy ma'naviy dunyosini yoritib berar ekan, ularning barcha hislatlarini to'laqonli yoritib berishga harakat qilgan. Bu jihatlarni yoritilishi ularning boshqa xalqlar madaniyatidagi hayot tarzi keskin farq qiluvchi tomonlarini ko'rsatib berishga alohida e'tibor qaratgan. Qolaversa adibaning asarlari orqali dunyo xalqlari sharq madaniyatida boburiylarga bo'lgan xolisalona munosabatni ko'rdilar. Shu jihatlariga ko'ra Goddenning ijodi Sharq madaniyati,urf-odatlarini haqida to'liq ma'lumot berilishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Hamda asar voqealari rivojida shuni ko'rishimiz mumkinki, Turkiy xalqlarning urf- odatlari bilan Hind xalqining urf-odatlarini o'zaro qorishib bir-biri bilan aralash holda madaniy bog'liq bo'lgan va Turkiy millatlar Hind xalqi odatlarini, Hindlar esa Turkiy xalqlarning urf-odatlarini o'rganganini ko'rishimiz mumkin.

8) Asar mazmunida tarixiy voqealar va shaxslarga nisbatan holis yondashilgan bo'lib, Boburiylar davri Hindiston tarixining yoritilishida nisbatan haqqoniy xulosalar chiqarish mumkin. Bundan tashqari asarda ko'plab tarixiy shaxslar haqida ham ma'lumot berilgan bo'lib, ba'zan boshqa manbalardan olingan tasvirlarga asoslansa, ayrim hollarda Boburiylar sulolasi shajarasida umuman tilga olinmagan shaxslar haqida ma'lumot beradi.

9) Rumer Godden ushbu asarni tarjima qilishda tarjimashunoslikda murakkab hissoqlangan realiyalar va lingvokulturologik jarayonlaridan unumli foydalangan. Tarjimashunoslikda realiyalar bu voqealarning rost va xaqiqiy sodir bo'lganligiga yondoshib tarjima qilinadi va o'sha tarjima qilingan har bir gaplarni boshqa tilga tarjima qilinganda o'z realligini yo'qotmay manosini saqlagan holda tarjima qilish uslubidir. Lingvokulturologik jarayonda esa xalqlarning tili bilan birga o'z urf odatlarini va madaniyatini boshqa xalqlarga namoyish qilishdir. Chunki agar, bir davlat tarixi haqida yoki o'sha davlatda bo'lib o'tgan voqealar to'g'risidagi asarni tarjima qilinsa, o'sha davlatning urf-odati va madaniyati haqidagi malumotlarni o'z-o'zidan boshqa millatlar o'rganishga majbur bo'ladi. Bu esa tarjimaning lingvokulturologik jarayoni deb ataladi. Ushbu holatda o'sha davlat dunyo miqyosida o'z obro'yini egallab boradi.

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda R.Goddenning ilmiy-ommabop janrdagi asarlaridan biri bo'lgan "Gulbadan begim" asari o'zining tarixiy voqealar tasnifi, etnografik va geografik ma'lumotlari bilan Hindiston va Boburiylar sulolasi tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Olib brogan tadqiqotlarimiz natijalaridan ingliz tilining tarjimashunoslik va boshqa amaliy va nazariy fanlarini o'qitishda qo'shimcha manba sifatida foydalanishni tavsiya etamiz.

Qolaversa, asarda bevosita tarixiy ma'lumotlar berilganligi bois izlanishlarimizdan tarix, etnografiya va o'lkashunoslik sohalarda ham foydalanish mumkin. Bugungi kunda Boburiylar tarixiga qiziqish kuchayib borayotganligiga sababli ushbu ilmiy izlanishlarni kelajakda ham davom ettirish yangi ma'lumotlar bilan boyitilishiga umid qilib qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent.: Sharq, 1998. 245 b
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 1998. 176 b.
3. Karimov I.A. “ Bizdan ozod va obod vatan qolsin”. Tosh. “O'zbekiston” ,1998;
4. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – T.: Sharq, 2008. 304 b.
5. Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti. “Xorijiy tillarni yangi innovatsian pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish muammolari”
6. (Andijon nashriyot- matbaa M CH J 2015)
7. Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti,Xorijiy tillar fakulteti “ Tarjimaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokulturologik aspektlari”
8. M.Bakoyeva, E.Muratova, M.Ochilova “English literature” Tashkent-2006
9. X.So'piyeva “Gulbadan begim” tarj. Toshkent, 2005;
- 10.9.Azizov K, Qayumov O “Chet el adabiyoti tarixi” Toshkent. “O'qituvchi”,1987;
- 11.Аникин С.В. “История английской литературы” Л, Просвещение,1984;
- 12.Davronova SH. “Adabiy jarayon va yozuvchining ijodiy individualligi” Filologiya fanlari nomzodi diss. Toshkent. 2004;
- 13.Karimov. X. Hozirgi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi. (70-80-yillar); fil.fan.nom. diss. Toshkent.1994;
14. Rumer Godden “ Gulbadan,Portrait of a Rose Princess at the Mughal Court “ A Studio Book the Viking Press. New York. 1981;
15. Rumer Godden “Gulbadan, Portrait of a Rose Princess at the Mughal Court” The Felik Cluck Press,London, Twickenham, England. 1980.
16. Gulbadan begam, The History of Humayun or Humayunnoma. Tr. By A.S. Beveridge, Royal Asiatic Society, London. 1902;
17. Зарубежная литература XX в, Москва “Высшая Школа” 1988
18. Babur. Memoirs. 2nd volume , trans, by J. Leyden and W.Erikine. 1826, revised addition, Oxford 1921;

19. Abul Fazl, “ The Akbar Nama “, 3 volume, trans.by. H. Beveridge, Asiatic Society of Bengal, Calcutta, 1907-39.

Internet manbalar:

20. WWW// labriary.com;

21 WWW// Columbia University. org. com;

22. WWW// WiKi, ped.com;

23. WWW// books.com;

24. WWW// ziyonet. com.